

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLAR UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK

SUYUNOVA ZARNIGOR SHOYQIDIN QIZI

**“O'zbekistonda inson huquqlarini taminlashda YUNESKOning o'rni va roli
(axborot kommunikatsiya bo'limi faoliyati misolida)”**

5A320401- Xalqaro Jurnalistika

**Magistr akedemik darajasini olish uchun
yozilgan dissertatsiya**

Ilmiy rahbar: s. f. d. prof. N. Q. Jurayev

TOSHKENT 2015

Himoyaga ruxsat etildi:

Fakultet dekani _____ A. Nurmatov

Kafedra mudiri: _____ N. Qosimova

Ilmiy rahbar: _____ N. Jurayev

Rasmiy taqrizchi: _____ M. Isomov

Rasmiy taqrizchi: _____ I. Dilmurodov

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

MAVZU: “O‘zbekistonda inson huquqlarini taminlashda YUNESKOning o‘rni va roli (axborot kommunikatsiya bo‘limi faoliyati misolida)”

DAK qarori: o‘zbek guruhi talabasi Suyunova Zarnigorning magistrlik dissertatsiyasi

«_____» ga baholansin.

«_____» _____ 2015 yil

DAK raisi: _____

DAK kotibasi: _____

MUNDARIJA

Kirish	2
I bob. Xalqaro munosabatlar va inson huquqlarini o'rganishning nazariy metodologik asoslari	10
1.1. Xalqaro munosabatlarni o'rganishning ilmiy tamoiyillari va maktablari.....	10
1.2. Inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro munosabatlarning ahamiyati.....	19
1.3. I bobning xulosasi.....	28
II bob. Xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan dasturlar ko'lam va mohiyati	29
2.1. Xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda YUNESKOning tutgan o'rni.....	29
2.2. Xalqaro amaliyotda gender masalalarinig tahlili	48
2.3. II bobning xulosasi	58
III bob. O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining istiqbollari ..	59
3.1. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi faoliyati.....	59
3.2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston taraqqiyotiga YUNESKOning qo'shgan hissasi.....	71
3.3. III bobning xulosasi	91
Xulosa	92
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	95
Ilova	98

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Tinchlik va hamkorlikni mustahkamlash dolzarb bo'lib turgan hozirgi vaqda, dunyo mamalakatlari va millatlarini insonparvarlik

g'oyalarini ro'yobga chiqarish asosida birlashtirish va jiplashtirishda, dunyoni barqaror, xavfsiz qilishda xalqaro tashkilotlarning ahamiyati yanada oshib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida madaniy va intellektual ayirboshlashga tinchlikka ko'maklashish, uni mustahkamlash va xalqaro ko'lamda rivojlantirish vositasi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subektidir" deb ko'rsatib qo'yilishi, shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi qismida "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini taminlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin" ¹degan qoida mustahkamlab qo'yilgan. Bu O'zbekistonning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga to'la huquqli a'zo bo'lib kirishi, hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan har tomonlama tan olinishi va xalqaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarga jadal kirib borishi uchun huquqiy zamin yaratadi.

XXI asr boshida jahonda 300 dan ortiq xalqaro hukumatlararo tashkilotlar mavjud bo'lib, ular orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy o'rinni egallaydi. BMT to'g'risida mamalakatimiz Prezidenti I. Karimov, ushbu tashkilotning 48-sessiyasida shunday degan edi: "BMT- bu xalqlarning tinch-totuv yashashga bo'lgan ezgu irodasining buyuk ramzi, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining yorqin nishonasidir". ² Bu tashkilot- barcha davlatlar, mintaqalar va jahon hamjamiyati hayotiga oid eng muhim masalalarni yuksak darajada o'rganish va hal qilish bo'yicha zamonamizning eng nufuzli universal xalqaro tashkilotidir. O'zbekiston BMTga 1992-yilning 2-martida teng huquqli a'zo bo'lib kirdi.

¹ O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. Toshkent, O'zbekiston, 2013.

² Karimov I. A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqorolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir. T.: O'zbekiston, 2007.

BMTning ixtisoslashgan muassasalari tizimi mavjud bo'lib, O'zbekiston ularning deyarli barchasi faoliyatida ishtirok etib kelmoqda. Shu jumladan, BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO)ning faoliyatida ham O'zbekistonning ishtiroki muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov: "Biz YUNESKO timsolida eng muhim insonparvarlik masalalarining yechimiga ijodiy yondashishda harakatlantiruvchi kuch bo'lib hizmat qiladigan o'ziga xos, betakror xalqaro tashkilotni ko'ramiz", degan edi. YUNESKO faoliyati xalqaro intellektual hamkorlik, o'zaro yordam, tinchlik ishiga ko'maklashish vositasida amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat quyidagi to'rtta ustuvor sohani qamrab oladi:

- a) ta'lim;
- b) fan;
- c) madaniyat;
- d) kommunikatsiya;

O'z ustavidagi maqsadlarga erishish uchun YUNESKO quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirmoqda:

birinchidan, istiqbolni tadqiq qilish; ertangi dunyo uchun ta'lim fan, madaniyat va kommunikatsiyaning eng afzal shakillarini joriy qilish;

ikkinchidan, ilg'or bilimlarni ishlab chiqish, a'zo mamalatlarga yetkazish va o'zaro baham ko'rish;

uchinchidan, xalqaro me'yoriy andozalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashish;

to'rtinchidan, a'zo mamlakatlarga o'z rivojlanish startegiyalarini ishlab chiqishga va amalga oshirishga ko'maklashish;

-ta'lim, fan va madaniyatning milliy tizimlarini o'zida birlashtiruvchi, ayni paytda, xalqlarni butun insoniyatning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish orqali ularni dunyo ma'naviy me'rosi bilan tanishtirish orqali ularni dunyo intellektual taraqqiyotining tajribasi bilan boyitadigan ushbu universal xalqaro tashkilot –

YUNESKOga O'zbekistonning 1993-yilda a'zo bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. "Biz-degan edi Islom Karimov 1996-yilda bo'lib o'tgan YUNESKO Ijroiya kengashi sessiyasida, -avvalo ma'naviy sohada, fan, madaniyat, ta'lim va axborot sohalarida integratsiyalashuvni yoqlab chiqamiz."³

O'zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi keng ko'lamda rivojlanib bormoqda. Tashkilotning Yurtimizda amalga oshirayotgan ishlarining barchasida eng avvalo, inson huquqlari va manfaatlarini taminlash masalasi yuqori o'rinda turadi. Bu hamkorlikning istiqbollarini bir qancha misollarda ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ta'lim sohasidagi ishlar ko'lami kun sayin ortib borayotganligi barchamizni quvontiradi. YUNESKO kafedralari , xalqaro hamjihatlik ta'limi, barqaror taraqqiyot ta'limi, "Ta'lim barcha uchun" YUNESKO birlashgan maktablar tarmog'i kabi dasturlar va kasb-hunar ta'limi sohasidagi "Kasb-hunar ta'limi sohasida ijtimoiy hamkorlik" loyihasi mamlaktimiz ta'lim tizimi rivoji uchun joriy etilgan. Mamlakatimizda yoshlarga jahon standartlari asosida ta'lim berish, ular uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan ushbu dastur va loyihalar millionlab yoshlarni qamrab olmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishishi mamlakatimizning xalqaro huquqning teng subekti sifatida mustaqil faoliyat yuritishi uchun har tomonlama imkoniyat yaratib berdi. Shu asosga ko'ra, O'zbekiston turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini olib bormoqda.

YUNESKO tashkiloti hozirgi davrda yangi jahon tartibotini yaratish va davlatlar tomonidan ushbu tartibotlarga rioya etilishiga erishish uchun muhim say harakatlarni amalga oshirmoqda. U tegishli sohalar doirasida davlatlar uchun "yumshoq" va "qattiq" xalqaro munosabatlar doirasida inson huquqlarining taminlanishini shakillantiruvchi xalqaro me'yoriy hujjatlar ishlab chiqib, xalqaro

³ Karimov I. A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqorolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir. T.: O'zbekiston , 2007.

munosabatlar faniga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekiston nafaqat ushbu normalarni bajarish, balki ularni ishlab chiqish va xalqaro huquq fanini yanada boyitishda ham faol ishtirok eta boshladi. YUNESKO bilan hamkorlik mamalkatimizda ta'lim, fan va madaniyatni yanada rivojlantirishga va takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bu sohada biz erishayotgan yutuqlar bilan birga hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud bo'lib, ularni aniqlash va hal etish mamlakatimiz ta'lim, fani va madaniyatini yanada yuqori darajaga ko'tarishga, fuqarolarimizning bu sohadagi huquqlarini yanada yaxshiroq ta'minlashga va O'zbekistonning xalqaro maydonda rivojlangan davlatlar safiga chiqishiga yordam beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalqaro tashkilotlar huquqi, xalqaro tashkilotlarning norma ijodkorlikda ishtirok etishi, davlatlarning xalqaro tashkilot doirasida faoliyat yuritishi xalqaro huquq faning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro huquqshunos olimlar ushbu mavzuga Ikkinchi jahon urushidan keyin BMT kabi nufuzli ko'plab xalqaro tashkilotlarning vujudga kela boshlaganidan so'ng, e'tibor qarata boshladilar. Chunki bu vaqtgacha xalqaro huquqiy munosabatlarni shakillantirishda xalqaro tashkilotlar muhim rol o'ynamas edi. 1919-yilda tashkil etilgan Millatlar Ligasi ham o'z oldiga qo'yilgan asosiy vazifani bajara olmadi, Ikkinchi jahon urushining oldini olmasdan tarqalib ketdi. XX asrning ikkinchi yarmida esa davlatlar xalqaro hamjamiyat dunyoda tinchlik va havfsizlikni saqlash, jahon taraqqiyotida xalqaro tashkilotlarning ahamiyati katta ekanligini tan oladi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan YUNESKO tashkiloti, uning xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni, a'zo-davlatlar bilan hamkorligi masalalariga D. Ansilotti, K. A. Bekyashev, A. Bustamante, V. Volodin, X. Kelzen, M. A. Lyashenko, R. A. Myullerson, F. Mayor, T. N. Neshatayeva, M. Negin, M. Potochniy, P. Radoynov, K. P. Rubanik, Ch. Russo, Y. Simonidas, G. I. Tunkin, R.

A. Tuzmuhammedov, K. Uels, E. T. Usenko, P. Fasil, U. F. Shibaeva, V. M. Shurshalov kabi xorijlik olimlar o'z asarlarida to'xtalib o'tishgan.

O'zbekistonlik olimlar F.Bakaeva, A.Mamatqulov, G.Yuldasheva, Q. Jo'raev, A. Ikromov, A.Saidov, B.Toshev, M.Fayziev, R.Hakimovlar o'z asarlarida, shuningdek, I.Boboqulov, A.Gafurov, G.Matkarimova, P.Makkamboev, M.Rahimov, A.Rahimov, L.Saidova, A.Tursunov, Z. Sharipovlar esa nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida xalqaro huquq masalalarini, xalqaro tashkilotlarni, shu jumladan YUNESKO tashkilotini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etganlar.

Tadqiqotning maqsadi.

Bugungi globallashtirilgan davrda xalqaro miqyosda faoliyat olib boruvchi tashkilotlarning faoliyatini tadqiq etish, YUNESKO tashkilotining amalga oshirayotgan loyihalarida inson huquqlari bilan bevosita aloqador bo'lgan jihatlarni o'rganish, O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining mustahkam asosga ega ekanligi va bu doirada amalga oshirilayotgan ishlarning mazmun mohiyatini ochib berish, YUNESKOning Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Milliy Komissiyasining turli sohalar rivoji uchun amaldagi loyihalarini tahlil etish va tashkilotning O'zbekiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasini axborot kommunikatsiya bo'limi tomonidan ommaga taqdim etilayotgan axborotlar orqali o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilanadi

- Xalqaro munosabatlar va inson huquqlarini o'rganishning nazariy metodologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslash;
- Xalqaro munosabatlarni o'rganishning ilmiy tamoyillari va maktablari haqida atroflicha mulohaza yuritish;
- Inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro munosabatlarning ahamiyatini o'rganish;

- Xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda YUNESKOning tutgan o'rni qay darajada ekanligi misollar orqali yoritib berish;

- YUNESKOning bugungi kunda xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan dasturlar ko'lamini va mohiyatini aniqlash;

- Xalqaro amaliyotda gender masalalarinig tahlilini ko'rsatish;

- O'zbekiston va YUNESKO hamkorligi istiqbollarni tashkilot bilan aloqalar misolida berish;

-YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi faoliyati ko'lamini ochib berish;

- Mustaqillik yillarida O'zbekiston taraqqiyotiga YUNESKOning qo'shgan hissasini axborot-kommunikatsiya bo'limi tarqatayotgan amaliy misollarda berish;

Tadqiqotning obekti va predmeti. BMT ning fan, madaniyat, ta'lim, kommunikatsiya yo'nalishlarida faoliyat olib boruvchi xalqaro ixtisoslashgan YUNESKO tashkilotining Toshkentdagi vakolatxonasi tadqiqotning obekti etib belgilangan .

Tadqiqotning predmeti sifatida YUNESKOning turli sohalarda amalga oshirayotgan ishlarining tahlili, O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining rivojlanish dinamikasi o'tgan yillarda qay darajada bo'lganli, inson huquqlarini taminlash ustuvorligining bugungi kundagi ko'rinishi, axborot kommunikatsiya bo'limi faoliyatini tahlil etishdan iborat .

Tadqiqotning metodologik va uslubiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ommaviy axborot vositalari sohasiga doir qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida bayon etilgan yo'l- yo'riqlar, axborot olish, qayta ishlash va tarqatish sohasidagi xalqaro deklaratsiya, pakt, shartnoma, protokollar, shuningdek zamonaviy jurnalistika nazariyasi va amalyotiga, shuningdek turdosh sohalarga doir asarlar ishning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqot uchun jurnalistika, siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar, diplomatiya asoslari,

filologiya, falsafa, tarix kabi ijtimoiy-gumanitar sohalar bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, chop etilgan adabiyotlar ham muhim nazariy manba vazifasini o'tadi.

Tadqiqot uslublari. Ishni yozishda o'zbek va jahon jurnalistika ilmida sinovdan o'tgan qiyosiy-tipologik uslubdan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. YUNESKONing faoliyati qator ilmiy tadqiqot ishlarining o'rganish obektiga aylangan bo'lsa ham, lekin uning faoliyatida inson huquqlarining taminlanish darajasi hali ilmiy asosda o'rganilmagan. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi YUNESKO va O'zbekiston munosabatlarining bugungi kundagi istiqbollari yoritib berishga qaratilgan dastlabki keng qamrovli ilmiy ishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Mazkur ish O'zbekistonda inson huquqlarini taminlanishida YUNESKONing tutgan o'rnini amaliy jihatdan asoslab berishga yo'l ochadi. Dissertatsiyadagi nazariy qarashlar, umumlashmalar, ilmiy xulosalar O'zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti, Qoraqalpoq davlat universiteti jurnalistika, O'zbekiston davlat san'at instituti jurnalistika bo'limlarida tahsil olayotgan talabalarga "Xalqaro monosabatlar", "Inson huquqlari", "Siyosatshunoslik", "Diplomatiya asoslari", "Jahon jurnalistikasi nazariyasi va amaliyoti" kabi fanlarni o'rganishda dissertatsiyaning materiallaridan nazariy manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Natijalarning e'lon qilinganligi.

Dissertatsiyada bayon etilgan xulosalar va amaliy tavsiyalar muallif tomonidan nashr etilgan jami 4 ta respublika ilmiy- nazariy konfrensiyalaridagi maqolalarida o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya “Kirish”, olti paragrafni o’z ichiga olgan uchta bob, “Xulosa”, “Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati” va “ilova” dan iborat. Matning umumiy hajmi ...bet.

I bob. Xalqaro munosabatlar va inson huquqlarini o’rganishning nazariy metodologik asoslari.

1.1. Xalqaro munosabatlarni o'rganishning ilmiy tamoyillari va maktablari

Xalqaro munosabatlar tabiatini tushunish faqat «tabiiy», «yaxlit» ahvolni, uning ijtimoiylashuvini hisobga olmaydi, bu holatni bartaraf etishning o'sib boruvchi dalillarini va yangi dunyoviy tartibotni e'tibordan soqit qiladi. Agar faqat sotsializatsiya tendentsiyasiga asoslanilsa, ya'ni dunyoning butunlik va o'zaro aloqadorlikda kuchayishi, xalqaro integratsiya, turli davlat va xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalardagi hamkorlik jarayonini, xalqaro munosabat va boshqa sohalardagi mos kelmaydigan manfaat, hattoki raqobat va zo'rlik hisobga olinmasa, unda xato xulosalarga kelinadi. Chunki bu hammaga qarshi urush emas, shu bilan birga barcha yagona qonun va umumiy ma'suliyat ostida yashaydigan hamjamiyat ham emas. Unda barcha a'zolar qiymat va me'yor bo'yicha ajratilgan. Gap o'tish davridagi ahvol haqida ketyapti, bu dunyoviy hamjamiyatning yuzaga kelishi ortga qaytarib bo'lmas tendentsiyaga aylanganini bildiradi. Bu «suverenitet plyuralizmi», o'zaro manfaatlar asosidagi hamkorlikning kengayishi va bazida kelishmovchilik tufayli bir-biriga zo'rlik vositalarining mukammalashuvi davridir.

Yuqorida ko'rsatilgan yondoshuvlar asosida xalqaro munosabat sohasini aniqlash yetarli ham emas. Ularni almashtirish yoki yana bir qancha yondoshuvlar bilan mukammallashtirish kerak bo'ladi. Mashhur fransuz tadqiqodchisi M.Merl yangi yondoshuv taqdim etib, uni «lokalizatsiya» deb atadi. Unga muvofiq xalqaro munosabatlar sohasi «chegaralarni kesib o'tish tendentsiyasiga ega kelishuv va guruhlar yig'indisi»⁴ deb aniqlanadi. Xalqaro munosabatlar rivojidadagi har bir etapni dunyoning o'z territorial chegarasida suverenitetni saqlagan davlatlarga bo'linish faktiga asosan tushunish ularning maxsus jihatlarini belgilashga imkon

⁴ «Международное конфликты современности» (отв.ред. В.И.Гайтман) М., 2004, стр 36.

yaratadi, shu bilan birga ularni davlatlararo munosabatlarga tadbiq qilmaydi. Unda xalqaro munosabatlarning eng to'liq tasnifi berilgan. Umumlashtirib aytganda, ilmiy adabiyotlarda bu munosabat pozitsiyasida xalqaro munosabatlarning turli tip, ko'rinish, shajara va holatlari haqida gapirish mumkin.⁵

Ilmiy adabiyotlarda xalqaro munosabatlar hukmronlik va qaramlik, hamkorlik va o'zaro yordam munosabatida, sinfiy mezonga ko'ra ajratilar edi. Birinchi tipga kapitalistik va feodal tiplar munosabati, ikkinchi tipga esa kolonial mustamlakachilikdan ozod etilgan sotsialistik (rivojlanayotgan) davlatlar munosabati kiritilgan edi.

Kuzatilgan faoliyatdagi barcha munosabatlarda bu sun'iy ekanligi namoyon bo'ldi. Shuning uchun bir qancha mualliflar sinfiy munosabatdan chiqmagan holda sistemani murakkablashtirishga urindilar. Yu.Kukulka bir turdagi xalqaro munosabatlarning 3 ta, oraliq munosabatlarning 3 ta tipini ajratdi. Real xalqaro hayot eng mukammal tiplarga ham ajratib qo'yilmagan. Ular sotsialistik davlatlar o'rtasidagi ziddiyat va qurolli to'qnashuvlarni ham, kapitalistik davlatlar o'rtasidagi chin ma'nodagi hamkorlikning mavjudligini ham (qarama-qarshiliklarni istisno qilganda) inkor qiladilar.⁶ O'zgarish 1990-yillar boshida Sharqiy Yevropada sodir bo'ldi, dunyo sotsialistik tizimi yo'qolgach, ko'pchilik mutaxassislar xalqaro munosabatlar klassifikatsiyasidagi sinfiylikni rad qilib, "umumsivilizatsion" kriteriyaga o'tishga majbur bo'ldilar.

Xalqaro munosabatlarni ijtimoiy hayot sohasiga ko'ra ham tasniflash mumkin (albatta, munosabat mazmunida) -iqtisodiy, ijtimoiy, diplomatik, mafkuraviy, harbiy-strategik va ishtirokchilariga ko'ra davlatlar, partiyalar, xalqlar, tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar va hkz.lar o'rtasidagi munosabat singari).

⁵ Ф.М.Бурлацкий «О системном подходе к исследованию внешней политики //М., 2007, стр 86.

⁶ Система, структура и процесс развития современное международное отношений. (отв.ред. В.И.Гайтман) М., Наука, 2005, стр 76.

Xalqaro munosabat rivojlanishiga ko'ra yuqori, quyi, o'rta darajaga bo'linadi. Biroq xalqaro munosabatlarning rivojlanganlik darajasini bilishdagi samarali bo'linish geopolitik kriteriyga asoslanganidir. Masalan, global (yoki umumsayyoraviy), regional (Yevropa, Osiyo), subregional (Karib dengizi havzasi davlatlari) xalqaro munosabatlar darajasi singari. Shu jumladan keskinlik darajasiga ko'ra barqaror va barqaror bo'lmagan, ishonchli va shubhali, konflikt va hamkorlik, urush va tinchlik holatlaridagi xalqaro munosabatlarni keltirish mumkin.

Inson huquqlarining instituzatsiyasi muhofazasining xalqaro tashkilotlarning hududiy darajasida ham yuzaga keladi. 1950- yilning 4-noyabrda Rimda Yevropa Sovetiga kiruvchi bir guruh davlatlar tomonidan inson huquqlarining Yevropa konventsiyasi qabul qilindi. 1969-yilning noyabr oyida inson huquqlari haqida Amerika davlatlararo konventsiyasi imzolangan edi. Shunga muvofiq inson huquqlari xalqaro huquq va sud komissiyalari vujudga keltirildi. 1981-yili Bangi (Tambiya) da inson va xalqlar huquqlarining Amerika xartiyasi tashkil etiladi va shunga muvofiq inson va xalqlarning huquqlari Amerika komissiyasi ta'sis etiladi. Nihoyat, YUNESKO doirasida 1981-yili inson huquqlari Umumisalom Deklaratsiyasi ta'sis etiladi.

Shunday qilib, inson huquqlari tobora alohida mavzuga aylanib, xalqaro munosabatlarga o'z ta'sirini kuchaytiradi. Unda bir tomondan inson huquqlarining xalqarolashuvi mujassam bo'lishini yuristlar ta'kid etishsa, ikkinchi tomondan xalqaro inson huquqlarining an'analari va uning umumgumanitar va demokratik huquqlar printsiplari tomon aylanishi qayd etiladi. Oxirgi urushdan keyingi yillarda yuridik normalarni o'ziga xos laboratoriyada ishlab chiqilishi va baholanishi G'arbiy Yevropaga ta'lluqli bo'ldi. 1949-yili Yevropa Soveti doirasida (1950-yilning 4-noyabrda) inson huquqi Yevropa konventsiyasi qabul qilindi. Bu sistema konkret individlarga, shikoyat va talablarni u yoki bu davlatning organi orqali kiritiladi. Konventsiya protokolini imzolagan mamlakatlar fuqarolari inson

huquqlari Komissiyasiga bevosita murojaat qilishlari kerak. Betaraf kishilardan tashkil topgan bu murojaatlarni asosli ekanligini baholaydi va ularni inson huquqlari Yevropa sudiga topshiradi, bu sud shu sohada 1972- yili 63 qaror qabul qilgan. 1982 -yili esa 146 qaror qabul qilgan. Shunday qilib, davlatga tegishli har bir munosib inson - xalqaro huquqning mustaqil sub'ekti bo'la oladi. Bu sistema qiymatining markazida inson shaxsiyati turadi. Ammo qarama – qarshiliklar ham paydo bo'lishi mumkni. Masalan, BMT Bosh Assambleyasining 1966- yili qabul qilgan iqtisodiy, ijtimoiy, moddiy, siyosiy paktlarga qaytaylik. Bularga tashkilot a'zolarining yarmidan kamrog'i qo'shilgan va ulardan 20 tasi fuqaroviy, siyosiy huquqlarga tegishli protokolni ratifikatsiya qildilar. Bu protokollar fuqaroviy va siyosiy huquqlarga tegishli bo'lib, xususiy shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, ko'rsatilgan faktlar bir tomondan hech qanday mexanizmlarni realizatsiya qilishni oldindan nazarga olmaydilar. Ikkinchidan esa BMT xartiyasining ikkinchi bobining ettinchi paragrofida ziddiyatlar suveren davlatlarning ichki ishlariga har qanday aralashuvni man etadilar.

Mutaxassislarning qayd etishicha, huquqiy masalalarni tartibga solishni shakl va mazmuni orasida uzilish bo'lishi ham mumkin; bu borada so'z davlatlar orasidagi huquqiy munosabatlarni solish printsiplari , tartibga solish predmeti sifatida xususiy shaxs manfaatlari ustida ketadi. Bu holda davlatni o'zining manfaati har doim ham bevosita insonning alohida huquq va ozodliklarini muhofazasi to'g'risida boradi. Shuning uchun ham davlatlar ko'pincha inson huquqlari haqidagi diskussiyani targ'ibot maqsadlarida ishlatadilar. Qo'shma Shtatlar tomonidan Eron, Iroq va Kubaning harakatlarini mahkum etishlari, Gvatemala yoki Isroil muhokamasi haqida so'z ketganda, ularni lom – lim demasliklari buning yana bir misolidir. BMT ning faoliyatida inson huquqlari sohasida besh omil bor, ular tashkilotning maxsusligi va qarama –qarshiliklarini ko'rsatadilar:

- inson huquqlarini siyosiyashtirish muammolari;
- davlatlarning xalqaro tekshiruvlarga tortilishini istamasligi;
- BMT instituttsional imkoniyatining yetishmasligi;
- BMT ning o'z imkoniyatlarini to'laligicha ishlatmaslik an'anaviy mexanizmlari;

- inson huquqlari sohasida BMT boshliqlari orasidagi yetishmovchiliklar.⁷

Bugungi global va hududiy xalqaro tashkilotlarning inson huquqlarini muhofaza qilish huquqlari nihoyatda kichik. Bugungi qabul qilingan Deklaratsiyalar yuridikdan ko'ra ko'proq falsafiy maslaxat beruvchi xarakterga ega. Umumislomiy inson huquqlari deklaratsiyasi hujjat sifatida qabul qilinmaydi, zero, ular davlatlar tomonidan imzolanganidan so'ng, xalqaro hamkorlik maydonida o'z amaliy o'rnini topishi kerak. BMT paktlari, Deklaratsiyadan farqli o'laroq, har bir imzolangan va ratifikatsiya qilgan davlatlarning majburiyatiga kiradi. Biroq bunga BMT a'zolarining yarmidan kamrog'i qo'shilgan. (80 ta davlat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar va 70 ta davlat fuqaroviy va siyosiy paktlarga) va ulardan 20 tasi xususiy shaxslarga murojaat qilish, fuqaroviy va siyosiy protokolni ratifikatsiya qildilar. Yuqorida keltirilgan paktlar bir tomondan ularni amalga oshirishning hech qanday mexanizmiga ega emaslar, boshqa tomondan esa BMT xartiyasining, ikkinchidan esa BMT ikkinchi bobining 7 paragrafiga qarshidirlar, suveren davlatlarning ichki ishlariga har qanday aralashuvini man etadilar.

Inson huquqi va xalqaro gumanitar huquqning bir – birlariga yaqinligi yuqorida qayd qilinadi. Uning ko'rsatishicha ayrim hollarda zamonaviy xalqaro huquq va xalqaro inson huquqlari taraqqiyotining 3 yo'nalishi bir – biriga qo'shiladi:

Xalqaro inson huquqlari Qizil yarimoy xalqaro Qo'mitasi faoliyati bilan qattiq bog'langan bo'lib, bu tashkilotni huquqiy shaklini ko'rsatishda katta qiziqish

⁷ Исрәялян В.Л. Дипломат лицом к лицу. М., 2003, стр 32.

bor: “Xalqaro inson huquqlari deb MKKK qurolli to’qnashuvlar davrida qo’llanadigan shartnomalar xarakteridagi xalqaro me’yorlar, faqat xalqaro va ichki gumanitar muammolarni yechimiga yo’naltirilgan bo’lib, ular gumanitar doiradagi urushni qanday vositalar bilan olib borish huquqini cheklaydilar va alohida shaxslar va ularning mulklarini saqlaydilar”.⁸ Xalqaro huquqni qurolli to’qnashuvlar vaqtida qo’llaydilar va uni ko’pincha “Xalqaro inson huquqlari” deb ataydilar. Xalqaro inson huquqlarining tashkil topishi 1859- yili Lobardiya Solferinosining urushlari bilan bog’liq . Frantsuzlar va italiyanlarning avstriyaliklar qo’shinlari ustidan g’alaba qozonishidan so’ng, jang maydonida o’z vaqtida tibbiy yordam ololmay 36 ming yaralanganlar, va ularning 60% halok bo’lishgan. Shvetsariya fuqarosi Anri Dyunan urushdan so’ng Solferino vodiysiga safar qilib, o’z holiga tashlab qo’yilgan, yaradorlarni ko’rib hayratda qolgan. Zero, ular tibbiy yordam olishganda, ko’pchiliklari sog’ qolgan bo’lar edi. U 1862-yili “Solferinoning xotiralari” kitobi chop etildi va bu asar ko’p mamlakatlarda katta jamoaviy rezonans berdi. A. Dyunanning faoliyati tufayli 1864- yili urush amaliyotidagi yaralangan jangchilarga yordam berish uchun diplomatik Konventsiya qabul qilindi va xalqaro miqyosda yordam berish Qo’mitasi tashkil etildi. 1880- yili xalqaro Qizil Yarimoy Qo’mitasiga aylantirildi. Keyinroq (1919-yili) hukumatga qaram bo’lmagan tashkilot - xalqaro Qizil Yarimoyning federatsiyasi deb yuritildi. Ta’kid etish lozimki, agar federatsiya aniq mazmunda nodavlat bo’lsa, unda MKKK xalqaro xarakterga ega milliy tashkilot bo’ladi. Faqatgina Shvetsariya fuqarolari uning a’zolari bo’la olmaydilar. MKKK ning hay’ati unga qurolli mojaro va tartibsizliklarni bartaraf etishda neytrallik va operativ harakatiga kafolat bera oladi. Keyinroq musulmon mamlakatlarida Qizil Salib va Qizil Yarimoy milliy jamiyatlari tashkil etildi. Har to’rt yilda Qizil Salibning xalqaro konferentsiyasi

⁸ Международное отношения политика и личность М., 2009. Стр 45.

o'tkazildi. Uning ishida MKKK, federatsiya, milliy jamoalar, hamda Jeneva Konventsiyasi imzolagan davlatlar qatnashadilar.

Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

a) Muvofiqlashtirish funktsiyasi-davlat huquq me'yorlari yordamida xalqaro hamkorlikning turli sohalarida umumiy qabul qilingan xulq-atvor standartlarini belgilaydi.

b) Tartibga soluvchi funktsiya – bu davlatlar tomonidan qat'iy qoidalarni belgilashda namoyon bo'ladi. Bularsiz davlatlarning jahon hamjamiyati bilan munosabatlari va birgalikda mavjudligini tasavvur qilishning imkoni yo'q.

v) Ta'minlash funktsiyasi – bunda xalqaro huquq shunday me'yorlarni o'zida mustahkamlaydiki, bu davlatlarning ko'p yillik aloqalari jarayonida belgilangan ma'lum xulq-atvor qoidalariga rioya qilishiga undaydi.

g) Muhofaza funktsiyasi – bu davlatlar milliy manfaatlarini va qonuniy huquqlarini himoya qiladi.

Xalqaro huquqning o'ziga xos hususiyatlari shundaki, xalqaro munosabatlarda davlatlardan yuqori turuvchi majburlash mexanizmi mavjud emas. Zarur hollarda davlatlarning o'zlari jamoa tarzida xalqaro-huquqiy me'yorlarning bajarilishini va xalqaro huquqiy-tartibotni ta'minlaydilar.

Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqiy tizimi – real voqelikda bir-biriga bog'liq , lekin mustaqil ikki huquqiy tizim mavjud bo'lib: bir tomondan, ichki davlat huquqi (alohida milliy davlatning huquqiy me'yorlari majmui) va ikkinchi tomondan, huquqiy tartibga solishning o'ziga xos ob'ekti va sub'ektiga) ega bo'lgan xalqaro munosabatlarda xalqaro huquq hisoblanadi. Agarda, ichki davlat huquqida huquqiy tartibga solish ob'ekti bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlar bo'lsa, xalqaro-huquqiy munosabatlar ob'ektiga davlatlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi. Huquqiy bir-biriga bog'liq , mustaqil ikki huquqiy tizim (ichki davlat huquqi va xalqaro huquq) tomonidan

tashkil qilingan deb tushunilishi xalqaro huquq fanida ham, davlat va huquq nazariyasi fanidan ham tan olingan, e'tirof etilgan. Ushbu muammo xususida huquqshunoslik fanida turli xil nazariyalar o'lg'a surilgan.

Xalqaro huquq sub'ektlari — bu xalqaro huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi yoki qatnashishi mumkin bo'lgan tomonlar, shaxslardir. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro huquq sub'ektlari — bu xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarda ma'lum yuridik huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan xalqaro munosabatlarning ishtirokchilaridir.

Xalqaro huquq sub'ektlari quyidagilar hisoblanadilar:

- Davlatlar;
- O'z taqdirini o'zi belgilash uchun kurashayotgan millatlar va elatlar;
- Xalqaro (hukumatlararo) tashkilotlar;
- Davlatga o'xshash tuzilmalar.

Har qanday huquq sub'ekti o'z ichiga ma'lum huquq va majburiyatlarni egallash qobiliyati bilan birga ularni amalga oshirishni ham o'z ichiga oladi. Bu xalqaro huquqiy muomala layoqatiga ega bo'lish iborasi bilan ifodalanadi. Xalqaro huquq faqatgina xalqaro munosabatlarda mustakil ishtirok eta oladigan va xalqaro yuridik huquq va majburiyatlarga egalik qila oladigan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ichki davlat munosabatlarini esa tartibga solmaydi. Alohida yuridik va jismoniy shaxslar doimo ichki davlat qonun-qoidalariga buysunadilar va ichki davlat yuridik huquq va majburiyatlarining egasi bo'lib hisoblanadilar, shuning uchun ular xalqaro huquq sub'ekti bo'la olmaydilar.

«Xalqaro huquq sub'ekti» iborasi uzoq vaqt faqat ilmiy ishlarda qo'llanib kelindi. Biroq keyingi paytlarda bu ibora xalqaro-huquqiy xujjatlarda ham ishlatila boshlandi. Misol uchun, 1969- yilgi xalqaro shartnoma huquqi to'g'risidagi Vena

konventsiyasida, 1978- yilgi davlatlarning xalqaro shartnomalar bo'yicha vorisligi to'g'risidagi Vena konventsiyasida va hokazo.⁹

Davlatning o'ziga xos bo'lgan siyosiy-huquqiy belgisi — bu uning suverenitetidir. Davlat suvereniteti— bu davlatning o'z hududida ustuvorligi va xalqaro munosabatlarda mustaqilligidir. Bunday hususiyatga faqat davlatlar ega xolos, shuning uchun ham u xalqaro huquqning asosiy sub'ekti bo'lib hisoblanadi. Suverenitet mamlakatga tegishli bo'lmaydi (geografik tushuncha bo'yicha), balki davlatga tegishlidir. Xalqaro munosabatlarda davlat suveren tuzilma sifatida o'z ustidan hech qanday hokimiyat bo'lmagan holda, hamda uning harakati yo'nalishi belgilanishiga hech qanday davlatning haqqi bo'lmaganligi holda qatnashadi. Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlarlar, ularga amal qiluvchi davlatlar tomonidan o'zaro kelishilgan holda tuziladi. Me'yorlar tuzish jarayonida davlat suvereniteti printsipiga qat'iy amal qilinadi.

⁹ Международное право. М., 2010, стр 114.

1.2. Inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro munosabatlarning ahamiyati.

Hozirgi paytda xalqaro munosabatlarni to'liq o'rganishning uch darajasini alohida ko'rsatib o'tish mumkin;

- Xalqaro munosabatlar sohasidagi u yoki bu voqea-hodisani, bitim va xatti-harakatni sharhlaydigan aniq ma'lumotlarni to'plash;

- Yig'ilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va turli doiralarda talqin qilish;

- Xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasida xalqaro hayotning asosiy kategoriyalari, tushunchalari, qonuniyatlarini shakllantirish.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi va tarixining dolzarb muammosi sifatida quyidagi mavzularni alohida qayd qilish mumkin:

- Xalqaro munosabatlar sistemasi (tizimi) tushunchasi va uning genezisi;

- Xalqaro munosabatlarda kuchlar muvozanati;

- Bugungi kundagi umumiy tinchlikni mustahkamlash yo'lidagi global muammolar;

- Ziddiyatarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va uning oldini olish, qurollanish poygasini cheklash yo'llari;

- Bugungi dunyoda internatsionallashuv, integratsiyalashuv va suverenitetga ega bo'lish muammolari;

- Millatchilik va uning xalqaro munosabatlarga ta'siri;

- Gegemonlik mojarolarini hal etish va ziddiyatli holatlarning oldini olish muammolari.

Demak yuqoridagi muammolarning ko'lamidan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda xalqaro munosabatlarni ilmiy tadqiqot predmetini o'rganish bir qator ijtimoiy-siyosiy funktsiyalarga ega:

Ma'rifiy funktsiya. Xalqaro munosabatlar tarixiy jarayonning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, shu sababli ularning rivojlanishi va jahon hamjamiyatidagi o'zaro aloqalari qonuniyatlarini bilish bugungi hayotdagi turli

voqea-hodisalarni atroflicha o'rganish, ularning dunyoviy taraqqiyotdagi o'ziga xos umumiy jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy-siyosiy funktsiya. Xalqaro munosabatlar rivojlanishining qonuniyatlarini tarixiy faktlarni nazariy anglash asosida aniqlash davlatlarning tashqi siyosatidagi yo'lini ilmiy jihatdan asoslangan holda belgilashga ko'maklashadi, sub'ektiv va hatto xulosalar chiqarilishi ehtimolini kamaytiradi.

Dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasi. Tarixiy jarayonlarni umumiy o'rganish va qisman, xalqaro munosabatlarni o'rganishning dunyoqarashni shakllantirishdagi muhim jihati shundaki, u orqali fuqarolik sifatlarining axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini ularning rivojlanishi asnosida o'rganish imkonini beradi, tarixiy tafakkurni shakllantiradi. Ijtimoiy jarayonlarning faollashuvida, muayyan tarixiy shart-sharoitlarga muvofiq tarzda, unga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarga tasir etadi.

Mamlakatning jahon iqtisodiy taraqqiyoti jarayoniga qo'shilishi milliy manfaatning muhim ustuvorligiga aylanadi, chunki globallashtirish jarayonida deyarli absolyut qonuniyat bo'lib, hech qaysi mamlakat jahon iqtisodiyotiga qo'shilmay, jiddiy iqtisodiy o'sishga va aholi farovonligini ko'tarishga erisha olmaydi. Shu bilan birga milliy manfaat tuzilmasida axborot, aloqa va transport sohalarini eng zamonaviy vositalar birligini ta'minlovchi, ilg'or texnologiyalarni egallashga intilish oldingi o'ringa o'tadi. Xarbiy omil va unga bog'liq strategiyalarda milliy manfaatlar ierarxiyasi birinchi, lekin oxirgi bo'lmagan o'rinda aralashib ketadi. Haqiqatan ham, bugungi kunda millat-davlatning saqlanib qolishi an'anaviy harbiy tahdidlarga qarshi tura olish qobiliyatiga emas, balki iqtisodiy, texnologik, ekologik, demografik va axborot harakteridagi yangi chaqiriqlarga loyiq javob topa bilish imkoniyatlariga bog'liq. Aytib o'tilganidek, globallashtirish "kuchsiz" yoki "samarasiz davlat" atamasi bilan izohlanuvchi fikr uyg'otadi. Birinchi navbatda u Janubning kuchsiz rivojlangan mamlakatlarga ta'sir qiladi, o'tish davri iqtisodiyotiga ega va siyosiy munosabatlarda beqaror mamlakatlarga tahdid soladi,

qandaydir ma'noda bular barcha davlatlarga tegishli bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy mamlakatlar milliy manfaatlarini tuzilmasida uning davlat institutlarini mustahkamlashi juda muhim o'rin egallaydi. Haqiqatan ham, ko'rib o'tganimizdek, "milliy" va "davlat" manfaatlarini bir vaqtning o'zida bir-birini inkor etishi bilan birga o'zaro to'ldiruvchi hisoblanadi. Shuning uchun ham ulardan birining kamsitilishi yoki "qaytimi", shubhasiz, ikkinchisining kuchsizlanishi yoki tubanlashishiga olib keladi. Davlatning o'z hududiy butunligidan bosh tortishining sababi uning muqarrar kuchsizlanishi va tubanlashuviga olib keladi. Kuchsiz mamlakat esa globalizatsiya imkoniyatlari bilan bog'liq va hayot tarzining hunuk oqibatlariga ta'sir qilish kabi chaqiriqlarga yetarli darajada javob bera olmaydi.

Xalqaro huquqni ta'minlovchi ilm – fanning birlamchi manbai urush bo'ldi. Shuning uchun xalqaro huquqlarga maxsus bag'ishlangan birinchi ishlarda huquqiy e'tibor berildi. Bular XIV asrlarda paydo bo'lgan (ammo, bu mavzuga bag'ishlangan bayonlar ancha oldin ham uchraydi) urushni olib borish huquqlari va uni adolatli hisoblash sharoitlari muhokama etilgan. Zamonaviy xalqaro huquq uzoq tarixiy taraqqiyot mevasidir. U har davrda, turlicha shakllangan. Xalqaro huquq o'zining ilk evolyutsion davrida giologik shaklda bo'lgan. Assuriya, Misr, Dogomiya, Peru davlatlarida xalqaro huquqni qo'llash va urush huquqi kohinlar qo'lida bo'lib, faqat ulargina urushni boshlash va oxirga yetkazish yo'llarini yoritar edilar. Hatto boshliq ierarx bo'lmasa ham uni qisman shu sifatda qabul qilishlarini xohlar edi. Sezar ham, Avgust ham katta lavozimlarni egallab, bir vaqtda ham oliy qo'mondon ham ulug' Kohin bo'lishni istar edilar. Bu ma'lum boqimandalik xalqaro huquqning giologik kontseptsiyalarining qoldiqlarini bugun ham uchratish mumkin: masalan, qonli o'ch olish odatlari, "Muqaddas urush" (jihod), muqaddas o'ch olish odati va xokazo.¹⁰

¹⁰ Бурулацкий «О системном подходе к исследованию внешней политики //М., 2007, стр 87

O'rta asrlarda xalqaro kontsepsiya metafizik shakl oladi. Xalqaro huquq quyidagi tushuncha va printsiplar asosida shakllanadi. Ular mutloq va doimiy suveren tushuncha bo'lib, bosqinchilik va danostik huquqiga ega bo'lganlar. Oqibatda suverenlik har qanday mamlakatga qarshi urush boshlash huquqi, hatto har qanday tashqi chaqiriqlarga javob berish huquqi va vazifasiga ega bo'lganlar. Davlatlararo chegara chizig'i tushunchasi – bu o'z qo'shnisiga qarshi yurish yoki qo'shnisini unga qarshi urush boshlash joyidir. Bugun ham xalqaro huquq doimiy tarzda suveren hokimiyat tushunchasining takroriy ko'rsatkichidir. Xullas bu tushunchalar Fukidid va Polibiy davrlaridan beri amalda o'zgarmagan. “Bizning tinchlik shartnomalarimiz, arbitraj haqidagi kelishuvlarimiz, xujum qilmaslik haqida faktlarimiz Peloponnes urushlari davridagiga qaraganda uncha ham farqli emas, Metafizik huquqini o'z teologik meroslariga qo'shgan yagona yangi tushunchasi – bu milliylik printsiplari. (Elinlarni vahshiylardan farqlarini yunonliklar allaqachon bilar edilar)”.¹¹

Xalqaro huquqning yana bir tarixiy shakli, uning roli ham buyuk va ma'nodosh bo'lib, xalqaro huquqning antromerfi orqali ko'rsatilgan. Aftidan, absolyutizm printsiplari aks topgan, shuning uchun ham O'rta asr huquqi, siyosiy suverenitetdan avlodiy ezgulikni yaratgan. U esa avloddan avlodga o'tgan, davlatlararo janjal sifatida ko'rsatilgan.

Xalqaro munosabatlar tarixida shunday shakllari ham bor ediki, ularni huquqiy tartibga solinishi imperiyaviy huquqqa o'xshar edi. Ularni har bir kuchli davlatlarning o'zi xalqaro munosabatlarini tartibga solmoqchi bo'lganda foydalanganlar. Shunday qilib, ko'pincha kuchli davlat boshqa davlatlarga o'zining qonun – qoidalarini yuklab, ularga o'zi amal qilmas edi. Masalan, Fukididning yozuviga ko'ra, hatto qadimiy Yunon ham demokratik va imperiyaviy huquqni qo'llash kayfiyatidan o'zoqlasha olmagan. U o'z qurshovini osoyishtaligini ta'min etish yo'lida harakat qilmoqchi bo'ladi. Qurshovda Melosga Afina o'zini tutish

¹¹ Saidov A.X. Xalqaro huquq. Darslik.- T; Adolat. 2001, 98- bet

qoidalarini ma'lum qiladi. Bu qoidalar Yunon demokratiya me'yorlaridan tubdan farq qilsa ham unga orolni qonun bo'yicha boshqarish imkonini ta'minlaydi. Bugungi kunda ba'zi taraqqiyotchilarning aytishicha, xalqaro hayotning me'yorlarini belgilashga nihoyatda katta harbiy, iqtisodiy, siyosiy kuchga ega bo'lgan AQSh urinmoqda.

Havfsizlik Soveti a'zolaridan uni faqat Buyuk Britaniya tan oladi. Shu qatorda xalqaro sudni kompetentsiyasini qabul qilgan davlatlar, o'zlarini tanitishni ko'pgina shartlari bilan ko'zatadilar. Shuning uchun xalqaro sud hokimiyatini hali rivojlanmagan darajada deyish mumkin. Halqaro sudga kompetentsiyani yetishmasligi 1999-yili Yugoslaviya murojaatini ko'rib chiqishga halal berdi. U NATO ni bombardimon qilishni to'xtatish uchun shoshilinch choralar ko'rishni talab qiladi, zero u xalqaro huquqlar me'yorlarini buzgan holda olib borilar edi.

M. Shemye Jangro bu borada ritorik masala qo'yadi, masalan, Isroil rahbariyatini qanday sud ta'qib qila oladi, u Iordaniyada Isroil kuchlarini joylashtirishga urinadi, bu esa Jenevaning to'rtinchi konventsiyasida ko'rsatilgan.

Mazkur konventsiyaning 49- bobida: "Birovlarni yerini bosib olgan mamlakat deportatsiyani amalga oshira olmaydi va o'z fuqarolarini bir qismini ham okupatsiya qilingan davlatlar hududlarida joylashtira olmaydi".¹² Atlantika ittifoqi rahbariyatini NATO ning bombardimonlari natijasida Yugoslaviyani fuqarolariga yetkazilgan zararlarni qoplashga qodir va sud uni javobgarlikka torta oladimi, degan savol o'rta tashlandi. Javob ma'lum: buyuk davlatlarning irodasi bo'lmaganda xalqaro huquq foydasiz bo'lib, o'zining belgilangan vazifalariga to'lalagicha javob berishi zarur. Xalqaro huquqlar, ularni muvozanatini buzilishi asosiy printsiplar orasidagi qarama – qarshiliklarni paydo bo'lishi vaziyatni murakkablashtiradi.

¹² «Международное конфликты современности» (отв.ред. В.И.Гайтман) М., 2004, стр 113

Xalqaro huquqning asosiy printsiplari deb, uning muhim me'yorlari, unga xos bo'lgan asosiy mazmun printsiplarini tushunamiz, ular esa oliy imperativ yuridik kuchga egadirlar. Zamonaviy xalqaro huquqning asosiy tamoyillari bir qator obro'li xalqaro tashkilotlar va forumlar hujjatlarida, BMT ustavi, xalqaro huquqning

1970 yili qabul qilingan Deklaratsiyaning printsiplarida, xavfsizlik Kengashi va Yevropa hamkorligining 1975-yili yig'ilishining xulosaviy aktida mustahkamlab qo'yilgan, (Shuning u-n, ularni ba'zan "Xelsenkiy dekologi" ham deb yuritiladi).

Xalqaro aktlarda qoida bo'yicha quyidagi 10 printsiplari haqida so'z yuritiladi:

- Chegaralar dahlsizligi;
- Davlatlarning territorial butunligi;
- Baxslarni tinchlik yo'li bilan tartibga solish;
- Ichki ishlarga aralashmaslik ;
- Inson huquqi va asosiy ozodliklarini hurmat qilish;
- Xalqlarning teng huquqligi va ularni o'z taqdiriga o'zlari bosh bo'lmoqliklari;
- Davlatlararo hamkorlik;
- Xalqaro huquqiy majburiyatlarni vijdonan bajarish.
- Xalqaro munosabatlar sistemasini asoslarini mustahkamlash va saqlab qolish, ularning normal hayoti va yuksalishiga ko'maklashish, hamda umuminsoniy manfaatlar va qiymati – jahonning tinchligi, havfsizligi, hayot va salomatligi, xalqaro hamkorlik va boshqalarda namoyon bo'ladi.¹³ Xalqaro huquqning asosiy printsiplari tarixiy xarakterga ega, ya'ni ularda shu davr talabi va xalqaro munosabatlarning holatiga ko'ra asosiy huquqlari va majburiyatlari mustahkamlanadi. Ularning ahamiyati va mavqeyini, xalqaro munosabatlarni tartibga solishga mustahkamlashtirish mumkin emas; tajribani ko'rsatishga bu printsiplar amalda yaxshi niyatlar va minnatdorchilik tuyg'ulari sifatida

¹³ «Международное конфликты современности» (отв.ред. В.И.Гайтман) М., 2004, стр 121

qolaveradilar. Shu bilan birga har qanday printsiplar ta'sirini davlatlararo majburiyatlarda inkor etish xato bo'lar edi. Ko'p sonli bo'lishlariga qaramay printsiplarning mazmuni bir – birlarini kesib o'tadilar va bir – birlari bilan xabarlashadilar. Shuning uchun xalqaro huquqning asosiy printsiplarida uch guruhni ajratish mumkin:

- 1.Xalqaro sub'ektlarning vaziyatini tengligini ta'minlovchi printsiplari;
- 2.Ularni mustahkamligini taminlovchi printsiplari;
- 3.Davlatlararo qarama – qarshiliklarni tinchlik yo'li bilan tartibga solish printsiplari.¹⁴

Birinchi guruhiga qadimiy fundamental g'oyalarni mujassam etuvchi me'yorlari kiradi. Ular davlatlararo huquqni tartibga solishni o'z ichiga oladilar. U BMT nizomida quyidagicha ifoda qilinadi: “Tashkilot barcha a'zolarining tengligi printsiptida tashkil etilgan”. Bu printsipteng huquqlikka, xalqlarning o'z taqdirlari bilan o'zlarini shug'ullanishlari qoidalarida; davlatlararo hamkorlik; xalqaro huquq majburiyatlarini bajarishida mujassamlanadi. U shuningdek, imunitet tamoyillari, hamkorlik va kamsitmaslikda yanada yuksaladi. Yuqorida ko'rsatilgan qoidalarning birinchisiga muvofiq davlat boshqa davlatning qonunchiligiga tob'e bo'la olmaydi. Uning vakillari boshqa davlatlar hududlarida dahlsizlik huquqiga egadirlar. (Diplomatik imunitet). Ikkinchi qoida xalqaro huquq sub'ektlarini pragmatik hulq – axloq tomon yo'naltiradi; bu yerda so'z konkret sohalarda majburiyatlarning o'zaro ta'siri haqida boradi; masalan, savdoda, madaniy almashuv va boshqalarda. Uchinchi qoidada so'z negativ majburiyat haqida boradi. Xalqaro huquq va foydani bir sub'ekt tomonidan kafolatlash kerak.

Ikkinchi guruh - aralashmaslik. Chegaralarga oid printsiplarni o'z ichiga oladi. Ular maxsus tashvish va doimiy eslatish predmeti bo'lsalar ham, birinchi guruh predmentlariga qaraganda tez – tez buzilib turadilar. Buni to'laligicha uchinchi

¹⁴ Сэм Бергер. О политико-экономической интеграции будущего (перевод ЕКФ 104-3.31.97)

guruh printsiplariga yo'llamoq mumkin bo'lar edi, (kuch va zo'rlik ishlatmasdan; baxslarni tinchlik yo'li bilan tartibga solish; inson huquqlariga rioya qilish). Xalqaro huquqning asosiy printsiplaridan biri inson huquqlari va asosiy ozodligini saqlash printsipidir, (u oxirgi o'n yillikda insoniyat umumiy huquqiy Deklaratsiyasi 1948-yili qabul qilingan). Mustaqil mavzuga aylanib, xalqaro munosabatlarga kuchli ta'sir yetkazmoqda. Shu sababdan mazkur mavzu uzoq vaqt g'oyalashtirilgan qarama – qarshilik quroli sifatida G'arb va Sharq mamlakatlari orasida ishlatilgan. Shu sababga ko'ra mazkur mavzu mafkuraviy ziddiyatlarni namoyish etuvchi davlatlararo chiroyli vosita sifatida xizmat qiladi.

Bu xalqaro huquqning ikki shakli so'nggi yillarda biroz yaqinlashmoqdalar. Bunday yaqinlashuvning asosi shundaki, har ikki voqeada so'z odamlarning fundamental, tabiiy huquqlari – normal sharoitda yashash, salomatligini va hayotning o'zini saqlashdan iboratdir. Shu bilan birga ularning oralarida katta farq bor.

Agar xalqaro induvidual va guruhiy huquq muhofazasining imkoniyat darajasini bu sohada hanuz XX asr boshlarida hukmron bo'lgan vaziyat bilan taqqoslasak, shubhasiz, rivojlanish sezamiz. BMT Nizomi inson huquqi va ozodliklari masalalari va preambulasining 1, 13, 55, 62, 68, 76, moddalariga murojaat qiladi. BMT ning Bosh Assambleyasi 1948-yil dekabr oyida inson huquqlarining umumiy Deklaratsiyasi, 1954-yildan boshlab inson huquqlariga tegishli bir qator xalqaro faktlarni qabul qiladi. Assambleya 2200 (XXI) asrning 1966-yili 16 dekabrda iqtisodiy, ijtimoiy va moddiy huquqlarga tegishli xalqaro pakt, fuqarolik va siyosiy huquqga daxldor fakultativ protokol va xalqaro pakti qabul qildi.

Protokolni imzolab ratifikatsiya qilgan davlatlar xalqaro huquq Qo'mitasining huquqlarini xususiy shaxslar shikoyatlari va ularni qayd etilgan huquqlarini tan oladi. Shunday qilib, inson huquqlari umumiy Deklaratsiyasi "insoniyatning barcha oilalariga" bir – birlari bilan adolat va birodarlik ruhida

bo'lishni undaydi. ¹⁵Yuqorida keltirilgan faktlar esa deklaratsiyadan farqli o'laroq har bir davlatning majburiyatlari sifatida qabul qilinadilar. Bosh Assambleyasining 23 - sessiyasida 1968- yili 2437 (XXIII) rezolyutsiya qabul qilindi va unda inson huquqlari haqida BMT ning Oliy komissari lavozimi ta'sis etildi.

¹⁵.Морозов Г.И. «Международные организации». Некоторые вопросы и теории. М., 2005, стр 96

1.3. I bobning xulosasi

Dunyoning ko'plab mamlakatlari O'zbekiston Respublikasini xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida tan oldi. Mamlakatimizning bir qator xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi, ular bilan "sherikchilik va hamkorlik", "o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish" bitimlarini imzolashi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar jahon tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan tahdidlarga barham berishda davlatlar sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirib boruvchi eng samarali vositalarga aylangan. O'zbekiston Respublikasi o'z davlat mustaqiligini qo'lga kiritish paytidan e'tiboran xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etganligi sababli xalqaro tashkilotlar huquqini bilish xalqaro huquqshunoslar kasbiy mahoratining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Jamiyatni demokratlashtirish jarayoni va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda xalqaro tashkilotlar huquqining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, xalqaro tashkilotlar inson huquqlari, huquq ustuvorligi kabi qadriyatlarni jahon miqyosida yoyish va himoya qilishning muhim vositasidir. Bundan tashqari iqtisodiy integratsiya, xalqaro moliyalashtirish mexanizmlari, birinchi navbatda, xalqaro moliya tashkilotlarda mujassam etilgan.

II bob. Xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan dasturlar ko'lamini va mohiyati

2.1. Xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda YUNESKOning tutgan o'rni

Xalqaro tashkilotlar haqida gapirishdan oldin biz xalqaro tashkilotlar tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. Xalqaro tashkilotlar bu-muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida tuzilgan, davlatlar a'zolarining huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan hamda xalqaro huquqqa binoan ta'sis etilgan davlatlarning umumlashmasidir.

Bunda xalqaro tashkilot tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi besh belgi: shartnomaga asoslanganlik, muayyan maqsadlarning mavjudligi, tashkiliy tuzum, mustaqil huquqlar va majburiyatlar, xalqaro huquqqa binoan ta'sis etilganlik to'g'risida gap yuritish mumkin.

Shartnomaga asoslanganlik shuni bildiradiki, xalqaro shartnomaning odatda ko'p tomonlama ta'sis akti, xalqaro tashkilotning nizomi hisoblanadi. Lekin xalqaro shartnoma asosida emas, balki xalqaro tashkilot organining qarori asosida tashkil etilgan hollar ham yuz bergan. Bu BMTning savdo va rivojlanish (YUNKTAD), Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanoatni rivojlantirish bo'yicha (YUNIDO) o'tkazilgan konferensiyalari tashkil etilishi bilan bog'liq. Mazkur tashkilotlar Bosh Assambleyaning huquqiga binoan BMT Nizomining 22-moddasidagi yordamchi organlar tuzish haqidagi qoidaga asosan tashkil etilgan edi. Shunga qaramay, YUNKTAD va YUNIDOni oddiy yordamchi organga kiritish mumkin emas. Bu organlar BMT tarkibida oddiy vazifani bajarmaydi, balki xalqaro tashkilotlar tizimiga ega bo'lgan organlardir. Bosh Assambleyaning 2152-qarori (1966-yil 18-noyabri) to'g'ridan-to'g'ri rivojlantirish bo'yicha tashkilot BMT Bosh Assambleyasi organi sifatida tuzildi va BMT doirasida muxtor tashkilot sifatida ish olib boradi.

Aniq bir yo'nalishdagi maqsadlarning mavjudligi xalqaro tashkilot tushunchasini belgilashda muhim belgi hisoblanadi. Tashkilotning maqsadlari xalqaro tashkilotning to'la huquqlilik xarakterini, uning tashkiliy tizimini, unga beriladigan huquqlarni belgilashda muhimdir. Tashkilotning mustaqil huquq va majburiyatlari unga a'zo bo'lgan davlatlarning huquq va majburiyatlaridan farq qiladi. Xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlari uning nizomlarida belgilangan bo'lib, ba'zi moddalar bevosita a'zo bo'lgan davlatlarga, boshqa moddalari esa, xalqaro tashkilotning o'ziga tegishlidir.

Misol uchun BMT Nizomining 19-moddasida shunday qayd etilgan: "Tashkilotga pul badallarini to'lash bo'yicha qarzi bo'lmagan tashkilot a'zosi, agar qarzining jami o'tgan ikki yil uchun to'lanishi kerak bo'lgan badal miqdoriga teng bo'lsa yoki oshib ketsa, Bosh Assambleyada ovoz berish huquqidan mahrum qilinadi." BMT Nizomining 21-moddasi esa aksincha bevosita tashkilotning o'ziga tegishli: "Bosh Assambleya o'zining ichki qoidalari va ish tartibini o'zi belgilaydi. U har bir sessiyaga raisni o'zi saylaydi" deyilgan.¹⁶ Xalqaro tashkilotning unga a'zo bo'lgan davlatlar huquqlari va majburiyatlaridan farq qiluvchi mustaqil huquq va majburiyatlarga ega bo'lish imkoniyati, birinchidan, o'z huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs sifatida shakllanadi, ikkinchidan, agar tashkilotlar xalqaro huquq subyektlari bilan bevosita aloqador bo'lsa, xalqaro huquqning subyekti bo'lib qoladi. Ularga asosan, bitimlar tuzish huquqi, imtiyoz va immunitetlarga bo'lgan huquq, vakolatlikka bo'lgan huquq, xalqaro huquqqa binoan xalqaro tashkilotning to'la huquqlilik xususiyatini bildiradi. Bu tashkilotning Nizomi va faoliyatida xalqaro huquqning keng e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga, avvalo, prinsipiga mos kelish zaruratini bildiradi.

¹⁶ M. A. Rashidov "O'zbekiston Respublikasining YUNESKO bilan hamkorligining xalqaro-huquqiy masalalari" T; 2005, 43- bet

Xalqaro tashkilotlarni turkumlash: tashkilotlarning huquqiy tabiati; tashkilot faoliyatini qo'llash; tashkilot faoliyatining yo'nalishi; xalqaro tashkilot a'zolari bo'lgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati singari belgilari bo'yicha o'tkaziladi.

Xalqaro davlatlararo universal tashkilotlarning maqsadlari va faoliyat mavzulari barcha davlatlar uchun manfaatli bo'ladi. Chunonchi, BMTning maqsadi va faoliyat yo'nalishi jahondagi barcha davlatlar uchun muayyan manfaatga daxldor va shu tufayli bu tashkilot uning Nizomini tan olgan barcha davlatlar uchun ochiq bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda BMTning xalqaro tashkilotlari tushunchasi keng tarqalgan, ular qatoriga BMT, 16 ta ixtisoslashgan tashkilot, atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) BMTning xalqaro tashkilotlar tizimiga ega bo'lgan yordamchi tashkilotlar, YUNKTAD, YUNIDO, BMT taraqqiyot rejasi PROON, shuningdek, BMTning atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha konferensiyasi YUNDP kiradi. Xalqaro tashkilotlar xalqaro tizimning tarkibiy qismidir. Va, tabiiyki, xalqaro tizimning rivojlanishi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy taraqqiyot qonunlari umumiy tarzda xalqaro tashkilotlar taraqqiyotini, ularning ijtimoiy va huquqiy tabiatini ham belgilab beradi.

Turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar ishtirokidagi tashkilotlar jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlari, shuningdek turli ijtimoiy tuzumdagi rivojlanish qonunlarining to'qnashuvi ta'siri ostida ish olib boradi. Bir ijtimoiy tuzumdagi davlatlar ishtirokidagi tashkilotlar esa, aksincha, shu ijtimoiy tuzum taraqqiyoti qonunlari ta'siri asosida harakat qiladi. Hozirgi zamon xalqaro tashkilotlarning yuridik tabiati, ya'ni asosiy yuridik tavsifi xalqaro huquqni rivojlantirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatayotgan o'sha jamiyat taraqqiyoti qonunlariga ko'ra belgilanadi. Xususan, uning ilmiy texnika taraqqiyoti, iqtisodiy hayoti va boshqa jihatlarining baynalmilallashuvi, suveren davlatlarning mavjudligi mustamlaka tuzumining yo'q qilinishi natijasida xalqaro maydonda ko'pdan-ko'p yangi davlatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagilarga asoslanib, hozirgi zamon xalqaro tashkilotlarni davlatlararo uyushma sifatida quyidagi asosiy yuridik belgilar bilan farqlash mumkin:

1. Ular qoida tariqasida davlatlar tomonidan xalqaro shartnoma tuzish yo'li bilan tashkil etiladi va mana shu shartnomalar asosida ish olib boradi;

2. A'zo davlatlar o'zlarining tashkilotdan chiqish huquqini saqlab qoladi;

3. Xalqaro tashkilotlarning eng muhim tamoyillaridan biri a'zo davlatlarning suveren tenglik tamoyilidir. Bu tamoyil xalqaro tashkilotlarning huquq doirasi, uning nizomi, ya'ni suveren davlatlar tomonidan tuzilgan erkin shartnoma bilan belgilanadi; tashkilotning a'zosi bo'lgan har bir davlat muhokama qilish uchun takliflarni kiritishda, muhokamada ishtirok etishda teng huquqqa ega, tashkilotning organlariga teng huquq asosida vakil qilinadi; har bir davlat bitta ovozga ega bo'ladi.

4. Turli ijtimoiy tuzumga mansub davlatlar ishtirokida tuzilgan xalqaro tashkilotlarda turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlarning tinch-totuv yashash tamoyili hal qiluvchi rol, o'ynaydi. Bu tamoyil umumiy xalqaro tashkilotlarga taalluqli darajada bu tashkilotlarga yangi a'zolar kabi qabul qilish chog'ida tuzumning xilma-xilligi asosida kamsitishni taqiqlashni bildiradi;

5. Xalqaro tashkilotlarning qarorlari tavsiya xarakterida bo'ladi. Faqat shu tashkilotlar faoliyatining ichki masalalari bo'yicha qabul qilgan qarorlar ularning nizomiga binoan majburiylik xarakteriga ega;

6. Xalqaro tashkilotlar ularning nizomi asosida xalqaro huquqiy subyektlilikning muayyan hajmiga ega bo'ladi.¹⁷

Xalqaro tashkilotlar odatda: oliy organ; ijarachi organ; ma'muriy organ; maxsus masalalar bo'yicha qo'mita va komissiyalarni o'z ichiga oladi. Bir qator tashkilotlarda yuridik organlar tuzilishi ham ko'zda tutiladi. BMT tizimi o'z xususiyatiga ega, u asosiy va yordamchi organlarga bo'linadi.

¹⁷ Saidov A.X. Xalqaro huquq subektlari. T; 2000, 78- bet

Oliy (yalpi) organlar tarkibiga a'zo bo'lgan davlatlarning hammasi kiradi. Umumiy xalqaro tashkilotlarda har bir davlat qoida tariqasida aholisining miqdori va iqtisodiy qudratidan qa'tiy nazar bittadan ovozga ega bo'ladi.

Oliy organning huquqiy doirasiga tashkilot doirasining muhim masalarini, shu jumladan, ijrochi organlarni, bosh kotibni saylash, tashkilot byudjetini tasdiqlash masalalarini ko'rib chiqish kiradi.

Ijrochi organ umumiy tashkilotlarda, tor tarkibdagi organ hisoblanadi. Davlatlar favqulodda holatlarda, shuningdek milliy savdo tashkilotlari, misol uchun, INMARSAT kengashida ularning a'zolari bo'ladi. Bu organlarga saylovlar asosan ikki mezonga binoan amalga oshiriladi. Bular: odil jo'g'rofiy taqsimot mezoni va o'ziga xos manfaatlar mezonidir.

Bunda har bir mintaqadan ijarachi organga muayyan miqdordagi a'zolar saylanadi. A'zolarining oz-ko'pligi mana shu mintaqaga kiruvchi davlatlar miqdori bilan tartibga solinadi. Har bir jo'g'rofiy mintaqada doirasida navbatma-navbat ijarachi organga saylanadigan davlatlar ajratiladi. Shunday qilib, oldin yoki keyin tashkilot a'zolari bo'lgan hamma davlatlar muayyan jo'g'rofiy mintaqaga mansubligi orqali ijrochi organ tarkibiga saylanadi.

Turli tashkilotlarda o'ziga xos manfaatlar mezoni xilma-xil belgilanadi. Misol uchun, xalqaro dengiz kengashi tashkiloti (IMKO)da dengiz savdosida o'z manfaatlari birinchi o'rinda turadi yoki xalqaro kemachilik sohasida xizmat ko'rsatishda katta o'rin tutadi.

Ma'muriy organlar-kotibiyatdir. Kotibiyat bosh kotib (direktor) tomonidan boshqariladi. Kotibiyat xodimlari uch turkumga: oliy ma'muriy mansabdor shaxslar, mutaxassislar sinfi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga bo'linadi. Bosh kotib oliy organ tomonidan 3-6 yilga qayta saylanadi. Kotibiyatning boshqa xodimlari Bosh kotib tomonidan tayinlanadi. Ular o'z vazifalarini tegishli haq hisobiga bajaradilar. Xodimlarni tashlash keng jo'g'rofiy asosda ularning malakasi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Maxsus masalalar bo'yicha qo'mitalar va komissiyalar borasida to'xtaladigan sifatida muvaqqat yoki doimiy qilib tuziladi. Ishtirokchilar tarkibi miqdori jihatidan ham xilma-xil bo'ladi. Ba'zilarining a'zolari qilib davlatlar belgilanadi. Boshqalarning a'zolari alohida shaxslar tariqasida belgilanadi. Ba'zilari-cheklangan tarkibdagi organlar, boshqalarida esa tashkilot a'zolari bo'lgan barcha davlatlar a'zo hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar davlatlar tomonidan aniq maqsadlar va vazifalarni bajarish uchun tuziladi. Buning uchun muayyan huquq doirasiga ega bo'ladi, bu huquq doiralari Nizomda qayd etiladi.

Tashkilotlarning faoliyati mazkur tashkilot huquq doirasiga binoan amalga oshirilsagina, to'la huquqli bo'ladi. Xalqaro tashkilotlarning huquq doirasi uning organlari huquq doirasida namoyon bo'ladi. Xalqaro tashkilot bilan uning organlari huquq doirasidagi ikki jihatni farqlab olmoq lozim: tashkilot qaramog'ida bo'lgan masalalar doirasida belgilovchi mavzu bo'yicha huquq doirasi va tashkilotning uning mavzu bo'yicha huquq doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha hujjatlarini belgilovchi huquq doirasidir.

Xizmat qiladigan ta'sis xalqaro shartnoma xalqaro tashkilot huquq doirasining asosi hisoblanadi. Chunki tashkilot huquq doirasidagi har qanday o'zgarish yoki uni organlar o'rtasida qayta taqsimlash ta'sis hujjatida bu masala bo'yicha shartnoma tartibida amalga oshiriladi.

Tashkilot organlarining qarorlari odatda o'zining majburiylik kuchiga qarab ikkiga bo'linadi. Bular: majburiy kuchga ega bo'lgan qaror va tavsiyalardir.

Qarorlar tashkilotning ichki hayoti bilan aloqador masalalar bo'yicha qabul qilinadi. Bu masalalar bajariladigan ish qoidalarini qarab chiqish, byudjetni tasdiqlash va a'zolar o'rtasida xarajatlarni taqsimlash, tashkilotga a'zolar qabul qilish, a'zolikdan o'chirish, tashkilot organlariga saylovlar va boshqalardir. Hamma xalqaro tashkilotlarda tashkiliy masalalar bo'yicha a'zo bo'lgan davlatlar uchun majburiydir. Tashkilot faoliyatining o'zagiga taalluqli masalalar bo'yicha

qarorlarga kelganda ular qoida tariqasida tavsiyalar xarakteriga ega. Bu, albatta, Bosh Assambleyaning qarorlarining siyosiy va axloqiy kuchini inkor etmaydi.

Xalqaro tashkilotlarning maqsad va vazifalari tushunchalarini farqlab olish lozim. Xalqaro tashkilotlarning maqsadlari xilma-xildir. BMT xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tuzilgan. IKAO xalqaro aviatsiya muammolarini o'rganish, fuqaro aviatsiyasi uchun xalqaro normalar va qoidalar ishlab chiqish hamda xalqaro havo yo'llarida uchishning xavfsizligini ta'minlash, jahon intellektual mulki tashkiloti (VOIS) avtorlik huquqini xalqaro maydonda himoya qilish maqsadlarida ta'sis etilgan va boshqalar. Maqsadlardan kelib chiquvchi aniq vazifalar xalqaro tashkilotlar tomonidan muayyan xarakatalar orqali amalga oshiriladi. Mazkur xarakatalrning yig'indisi xalqaro tashkilotlarning vazifasini tashkil etadi. Bular axborot, normativ, nazorat va amaliy vazifalardir.

Axborot vazifasi xalqaro tashkilotlarning eng eski vazifalaridan biridir. U o'z vazifasini ikki jihatdan amalga oshiradi: birinchidan, har bir tashkilot bevosita o'zining tuzumi va faoliyatining asosiy yo'nalishiga taalluqli hujjatlar turkumini e'lon qiladi, ikkinchidan, tashkilot maxsus hujjatlar, ma'ruzalar, ma'lumotlar, o'zi shug'ullanadigan masalalar bo'yicha qisqacha bayonlar e'lon qiladi.

Normativ vazifani ikki ma'noda: xalqaro tashkilotning xalqaro huquq normalarini yaratishda bevosita ishtiroki; xalqaro tashkilotning davlatlarning normativ jarayonida ishtiroki sifatida tushuntirish mumkin. Hozirgi vaqtda xalqaro tashkilotlarning davlatlarning normativ jarayonida ishtirok etishi keng tarqalgan. BMT tarkibidagi ko'pgina hukumatlararo tashkilotlar mana shunday normativlik bilan shug'ullanmoqda.

Nazorat vazifasi keyingi davrda ayniqsa keng rivojlandi. Ko'pdan-ko'p xalqaro hujjatlar, nizomlar ko'p tomonlama Konvensiyalar, Faktlar mavjud bo'lib, ular mana shu hujjatlarda ifodalangan normalarni bajarishni turli shaklda nazorat qilishni, shuningdek, nazoratni amalga oshirish uchun maxsus organlar tuzishni ko'zda tutdi.

Amaliy ish vazifasi xalqaro tashkilotlar vazifasi orasida yangidir. U, avvalo, BMT va uning maxsus muassasalariga taalluqli. Unga: BMTning amaliy ish bo'yicha vazifalari; BMTning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash bo'yicha operatsiyalari; BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan yosh rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko'rsatish va boshqa ayrim masalalar kiradi.

Xalqaro tashkilotlarning byudjeti a'zo bo'lgan davlatlar badallari hisobiga to'ldirib boriladi. Har bir tashkilot badallari byudjetga ajratish tartibini o'zi belgilaydi.

BMT badallari bo'yicha qo'mita uchta mezonni:

1. Aholi jon boshiga tushadigan mablag';
2. Jahon urushi tufayli mamlakat iqtisodiyotining ahvoli;
3. U yoki bu mamlakat tomonidan chet el valutasini sotib olish imkoniyatini

belgilab beradi. Ularga binoan har bir davlat tashkilot byudjetiga badalning ma'lum foizini to'lashi kerak.

Hozirgi vaqtda xalqaro tashkilotlar faoliyatining xarakterli xususiyatlaridan biri ularning byudjeti g'oyat o'sib borayotganligidadir. Misol uchun, 1946-yili BMT byudjeti 19 million dollarni tashkil etgan edi. 1988-1989-yillarda 986 million dollar miqdorida tasdiqlandi.¹⁸

Xalqaro tashkilot- bu xalqaro huquq va xalqaro shartnoma asosida, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy sohalarda hamkorlikni amalga oshirish uchun tuzilgan davlatlar birlashmasi bo'lib, uning uchun tegishli organlar tizimi davlatlar huquq va majburiyatlaridan kelib chiquvchi huquq va majburiyatlarga va hajmi hamda a'zo davlatlar tomonidan belgilangan avtonom xohish irodaga ega bo'ladi.

Har qanday xalqaro tashkilot kamida quydagi olti sifatga ega bo'lishi kerak:

1. Xalqaro huquqqa muvofiq tashkil etilishi. Ushbu sifat asosiy hal etuvchi ahamiyatga ega. Har qanday xalqaro tashkilot huquqiy asoslarda tashkil

¹⁸ Mamatqulov A. Xalqaro huquq. -T.: Adolat, 1997, 122-b.

etilishi shart. Xususan, har qanday tashkilotning ta'sis etilishi alohida davlatning tan olingan manfaatlariga dahl qilamsligi lozim. Tashkilotning ta'sis hujjati xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillariga va me'yorlariga (jus cogens) tamoyiliga mos kelmog'i lozim.

Agarda xalqaro tashkilot noqonuniy tarzda tuzilgan bo'lsa, yoki uning faoliyati xalqaro huquqqa zid bo'lsa, unda ushbu tashkilot ta'sis hujjati haqiqiy emas deb topilishi va uning foaliyati qisqa muddat ichida to'xtatilmog'i shart.

2. Xalqaro shartnoma asosida ta'sis etilishi. Qoidaga ko'ra xalqaro tashkilotlar xalqaro shartnomalar asosida (Konvensiya, Kelishuv, Traktat, Protokol va h.k) tashkil etiladi. Ushbu shartnoma ob'yekti subyektlar (shartnoma tomonlari) va xalqaro tashkilot faoliyati hisoblanadi.¹⁹ Ta'sis hujjatida suveren davlatlar tomonlar sifatida qatnashadilar. Ammo so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlarda hukumatlararo tashkilotlar ham to'la huquqli qatnashchilar sifatida ishtirok etmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi ko'pgina xalqaro baliqchilik tashkilotlarining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar, kengroq vakolatli boshqa xalqaro tashkilotlar rezolutsiyalari asosida ham tashkil etilishi mumkin. Xuddi shu tartibda FAO Kengashi rezolutsiyalariga muvofiq, Hind Okeanida baliq ovi bo'yicha komissiya, markaziy-sharqiy Atlantikada baliq ovi bo'yicha qo'mita tashkil etilgan. Ushbu holatda FAO rezolutsiyalari faqatgina xalqaro tashkilot hujjati sifatida tavsif etilmay, balki davlatlararo kelishuvning spetsefik shakli sifatida talqin etilib, o'z navbatida xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjati bo'lib ham hisoblanadi. Ushbu tarzda tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar, hukumatlararo tashkilotlar singari tashkiliy tuzilmaga ega bo'ladilar.

¹⁹ Морозов Г.И «Международное организации». Некоторые вопросы и теории. М., 2005, стр 135

3. Faoliyatning aniq sohalarida hamkorlikni amalga oshirish.

Xalqaro tashkilotlar davlatlarning u yoki bu sohadagi intilishlarini muvofiqlashtirish maqsadida tuziladi.

4. Tashkilotlarning huquq va majburiyatlarga egaligi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tashkilotlarning huquq va majburiyatlari a'zo davlatlarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Faqatgina tomonlar ushbu tashkilotga qanday huquqlar va qay darajada majburiyatlar berilishini hal etadilar.²⁰ Hech bir tashkilot o'z a'zo-davlatlari manfaatlariga dahl qiluvchi harakatlarni amalga oshirish mumkin emas. Har qanday tashkilotning huquq va majburiyatlari umumiy tarzda uning ta'sis hujjatida, oliy va ijroiya organlari rezolyutsiyalarida, tashkilotlar o'rtasidagi bitimlarda belgilangan. Ushbu hujjatlar a'zo davlatlarning maqsadlarini aks ettirib, keyinchalik tegishli xalqaro tashkilotlar tomonidan implementatsiya qilinmog'i lozim. Davlatlar tashkilotga u yoki bu harakatni amalga oshirishni taqiqlab qo'yishga haqlidir va tashkilot o'z vakolati doirasidan chetga chiqa olmaydi. Masalan, MAGATE Nizomining 3-moddasi, Agentlikka o'z faoliyati davomida, o'z a'zolariga yordam ko'rsatishda siyosiy, iqtisodiy, harbiy yoki ushbu tashkilot Nizomiga zid bo'lgan boshqa talablar asosida harakat qilishni ma'n etadi. Bu yerda so'z xalqaro tashkilotning a'zo-davlatlari irodasidan mustaqil irodaga ega bo'lishi xususida boradi. Ushbu belgi, har qanday xalqaro tashkilot unga a'zo davlatlar tomonidan yuklangan huquq va majburiyatlarni bajarish usuli hamda vositalarini o'z vakolati doirasida mustaqil tanlash huquqiga ega ekanligini anglatadi.

Davlatlar uchun xalqaro tashkilot unga yuklangan huquq va majburiyatlarni bajarish usuli emas. Aynan xalqaro tashkilot, xalqaro ommaviy va xususiy huquq subyekti sifatida o'z faoliyatining samarali usulini tanlash huquqiga egadir.

²⁰ Малинин С.А. Мирное использование атомной энергии. М.; 1971 С-116

YUNESKO-BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti



Tashkilot faoliyati

YUNESKO- BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti bo'lib, 1945-yil 16-noyabrda tashkil topgan. Tashkilot bosh qarorgohi Parijda (Fransiya) joylashgan. BMTning ixtisoslashgan agentligi sifatida YUNESKO tinchlikni saqlash, qashshoqlikka qarshi kurash, barqaror rivojlanish va ta'lim, fan, madaniyat, kommunikatsiya va informatiya orqali madaniyatlararo muloqatga ko'mak beradi. Shunday qilib, YUNESKO 193 ta a'zo davlatning xalqaro koopertsiyasi va YUNESKOning 6 assotsatsiyalashgan A'zolariga umumqadriyatlarni va har bir tamaddun, madaniyat qadriyatlarini hurmat qilish asosida muloqatlar uchun sharoitlar yaratishga bevosita ko'maklashadi.²¹

Bu tashkilotning qurulishiga, 1945-yil Noyabr oyida Londonda 44 davlatning vakillari qatnashgan holda qaror qilingan. Tashkilotning markazi Parijda. Uch organdan — Umumiy yig'ilish, Boshqaruv, Kotiblikdan iborat bo'lgan YUNESKO tashkilotining asl maqsadi, ta'lim, bilim va madaniyatni, unga a'zo bo'lgan har bir davlatdagi Milliy komissiyalar orqali amalga oshirishdan iboratdir.

Tashkilotga a'zo davlatlarning vakillaridan tashkil topgan Umumiy Majlis, 1946-1953 yillar orasida har yil o'tkazilgan bo'lib, 1954-yildan e'tiboran iki yilda bir marotaba o'tkazilmoqda. Tashkilotning tashkil qilinishidan bugungacha jami 26 Umumiy Majlis bo'lib o'tgan.

²¹ The Programme and Budget of the Organisation (document C/5) P; 2012. by the UNESCO General Conference.

Majlis, Tashkilotning eng muhim organi bo'lib, boshqaruv a'zolarini va Bosh Direktorni tanlab, YUNESKONing ishlash rejalarini qabul qiladi va byudjetni aniqlaydi.

YUNESKO Boshqaruvining, Umumiy Majlisga qo'shilgan va hukumatlarning nomzod bo'lgan vakillari, 58 a'zodan tashkil topadi.

YUNESKO Boshqaruv a'zolarining saylovi, 4 yilda 1 marotaba o'tkaziladi.

YUNESKONing Toshkentdagi ofisining asosiy maqsadi bu YUNESKO Kotibiyatini O'zbekistondagi ta'lim, fan, madaniyat sohalariga tegishli bo'lgan masalalarni va O'zbekistondagi BMT tizimining tadbirlarini amalga oshirishni va rejalashtirishni ta'minlaydi. Bu maqsadlardan yana biri YUNESKO dasturi bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish va oldinga siljitish maqsadida fondlarni jalb qilish, O'zbekistonda YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy Komissiya, milliy va xalqaro hamkorlar bilan yaqindan faoliyat olib borishdan iborat.

Asosiy yo'nalishdagi faoliyatlar

Ta'lim

Toshkentdagi YUNESKO vakolatxonasi O'zbekiston Hukumatiga texnik ko'mak berish, standartlar, novatorlik loyihalarini ishlab chiqish va mutaxassislik ma'lumotlarini almashish uchun setlar yaratish orqali ta'lim sohasida sifatni ta'minlash va takomillashtirishga yordam beradi.

O'zbekiston YUNESKO vakolatxonasining Ta'lim bo'limi mamlakat ta'lim sohasida o'qituvchilar salohiyatini oshirish, o'qitish tizimidagi sifatni ko'tarish va ta'lim treninglari orqali o'rganishga ko'mak berishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga ta'lim sektori quyidagi faoliyatlarga jalb qilingan:

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'qituvchilarga IKTni o'quv va o'qitish jarayonida joriy qilish bo'yicha treninglar o'tkazish;

Ta'limni Boshqarish, Ma'lumot Tizimini joriy qilish va o'rta ta'limning barcha darajalari haqida ishonchli ma'lumotlarni tanlash, qidirish uchun

imkoniyatlar yaratish orqali yuqori lavozimdagi kishilarning xabardorligini kuchaytirish;

O'zbekistonda texnik va o'rta maxsus Ta'limni rivojlantirish va kuchaytirish jarayoniga ko'mak berish. Shu maqsadda YUNESKONing Toshkentdagi ofisi texnik va o'rta-maxsus ta'lim tizimining mamlakat miqyosidagi tahlilini o'tkazadi;

Barqaror rivojlanish yo'lidagi ta'lim. Bu yo'nalishda barqaror rivojlanish masalasida O'zbekiston Milliy Universiteti bilan birgalikda mavjud bo'lgan o'quv rejalariga Barqaror rivojlanish uchun Ta'lim konsepsiyasini joriy qilish, shu bilan birga Barqaror Rivojlanish masalasida ta'lim mutaxassislarining xabardorligini oshirishga TuT(trenerlar uchun treninglar) o'tkaziladi;²²

YUNESKO OIV/OITS borasida 5 ta sohada ta'lim sektorida javob choralarini ishlab chiqish bo'yicha tadbirlarni qo'llab quvvatlaydi. Bularga:

ta'lim sifati, matn, o'quv rejasi va ma'lumot beruvchi manbaalar, o'qituvchilar uchun ko'mak va treninglar, boshqaruv tizimi va siyosatini ishlab chiqish kiradi. YUNESKO OIV/OITS va Ta'lim bo'yicha Global Tashabbus UNAIDS, EDUCAIDS dasturlariga rahbarlik qiladi. Shu bilan birga, tashkilot UNESCOga A'zo davlatlarning OIV/OITS masalasidagi profilaktika, tuzatish, parvarish qilishga mukammal yo'l topish harakatlarini qo'llab quvvatlaydi.

Madaniyat

Madaniyat sohasida YUNESKO quyidagi vazifalarni bajaradi:

1972-yildagi Butunjahon Madaniy va Tabiiy Merosi Himoya qilish Konvensiyasini amalda tadbiq qilish bo'yicha davlatning moddiy merosini asrash. Konvensiyada ba'zi geografik joylarning olamshumul ahamiyat kasb etishi va jamiki insoniyatning merosi ekanligi qayd etib o'tilgan. Hozirgi kunga kelib 4ta shahar: Xiva(Ichan qal'a) Samarqandning tarixiy marakazlari, Buxoro va

²² <http://www.unesco.org/general/eng/about/history/members/shtml>.

Shaxrisabz Butunjahon Meroslar Ro'yxatiga kiritilgan. Shu maqsad yo'lida YUNESKO Buxoro tarixiy markazi boshqaruv rejasining tayyorlanishi uchun GMT(Geografik ma'lumot tizimi) asosida holatini baholash va hujjatlashtirishni o'tkazadi, Samarqand bo'ylab sayoxatnoma ishlab chiqish va arxeologik artefaktlar konservatsiyasi yuzasidan treninglar tashkil qiladi.

O'zbekiston tomonidan 2008-yilda ratifikatsiya qilingan 2003-yilgi Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish Konvensiyasini amalga oshirish orqali nomoddiy merosni himoya va targ'ibot qilish. Boysun tumani va Shashmaqom(mumtoz musiqa) Insoniyatning Ramziy Nomoddiy Meroslar Ro'yxatiga kiritildi. YUNESKO doirasida Qoraqalpog'iston musiqa an'analari inventarizatsiyasi o'tkaziladi;

Hunarmandchilik, yarmarkalar tashkillashtirish va maqolalar- "Xorazmning oltin uzugi" (Golden Ring of Khorezm) Qoraqalpog'iston va Xorazm Madaniyati bo'yicha sayoxatnoma singari maqolalarni nashr qilish orqali madaniy xilma xillikni, madaniyatlararo muloqatni va madaniy turizmni targ'ib qilish. Farg'ona vodiysida OIV infeksiyasi bilan hayot kechirayotgan bolalarga ham rassomchilik bilimlarini va texnik mahoratlarini o'rganish imkonini beruvchi ksilografiyasining qayta tug'ilishi;

Harakatlanuvchi Madaniy Meros va Madaniy turizm sohalarida Milliy salohiyatni oshirish - asosan muzeylarda, trening va nashrlar: muzey boshqaruvi bo'yicha seminarlar, muzey xodimlari uchun xavfsilik choralari va muzey kolleksiyalari konservatsiyasini ta'minlash, madaniy meros menedjmenti bo'yicha sayoxatnoma va qo'llanmalarning tarjimasi va nashri orqali bajariladi.

FAN

YUNESKO ilmiy va texnologik jarayonni ahloqiy jihatdan turli jamiyatlarning madaniy, huquqiy, falsafiy va diniy meroslarini ko'rib chiqish kerak deb hisoblaydi. O'zbekistonning atrof-muhit va tabiiy merosini himoya qilish masalalariga quyidagilar kiradi:

Urganchdagi ZEF/YUNESKO loyixalari kabi yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ilmiy va tadqiqot loyihalari orqali targ'ib qilish;

Samarqandda har yili yozgi lagerlarda o'tkaziladigan quyosh energiyasi bo'yicha yosh olimlar ixtirolari orqali energiyaning yangi turlaridan foydalanishni targ'ib qilish;

Maktablarda barqaror rivojlanish borasida xabardorlikni oshirish orqali tabiiy fanlar sohasida ta'limni rivojlantirish;

Atrof-muhit masalalari bo'yicha nashrlar: O'zbekiston Ekologik Atlasi, O'zbekistondagi buloqlar Atlasini chop etish;

Ekologiyaga zarari tegmaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish: Indigo madaniyatini Xorazm va Qoraqalpog'istonda joriy qilish.

Kommunikatsiya va Ma'lumot

O'zbekistonda kommunikatsiya va informatsiya soxasini rivojlantirishga ko'mak berish, informatsiya va bilimlarga teng imkoniyat berish Toshkent YUNESKO ofisi Kommunikatsiya va Ma'lumot bo'limining ustuvor vazifalariga kiradi. Kommunikatsiya va Ma'lumot bo'limi milliy hamkorlar bilan birgalikda kommunikatsiya va ma'lumot ahamiyatini oshirish bo'yicha quyidagi loyihalarni amalga oshirishni rejalashtiryapti:

- Mustaqil, erkin va plyuralistik OAV ni rivojlanishini va uning jamiyatning barqaror rivojlanishidagi ishtirokini rag'batlantirishini qo'llab quvvatlash. Bu yo'nalishda YUNESKOning Toshkentdagi ofisi milliy hamkorlar bilan birgalikda turli -tuman media-kontent yaratdi va qishloq joylar uchun media loyihalar orqali media mutaxassislarining salohiyatini oshirishga imkon beruvchi loyihalarini ishlab chiqdi.

- Informatsion strukturani rivojlantirish va ma'lumotga bo'lgan umumiy ehtiyojni rag'banlantirish. Bu dastur doirasida muzey va arxivlar kolleksiyalaridan madaniy ta'limi va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan avvalgi ma'lumotlarni raqamlashtiradigan loyiha amalga oshirilmoqda.

• Mustaqil va plyuralistik OAV rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishda milliy harakatlarni qo'llab quvvatlash. Shu maqsadda YUNESKO OAV mahalliy mutaxassislarining kasb imkoniyatlarini kuchaytirish uchun atrof muhit masalalariga, asosan, Xorazm va Qoraqalpog'istonga urg'u bergan holda treninglar o'tkazmoqda.

Asosiy hamkorlar

Milliy hamkorlar:

- O'zbekiston Respublikasi YUNESKO Milliy Komissiyasi,
- Milliy va xalqaro NNT va jamg'armalar,
- Hukumatlararo tashkilotlar,
- Ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashkilotlar,
- Shahar va mahalliy hokimiyatlar,
- Xalqaro muassasa va tashkilotlar
- Vazirliklar,
- Xususiy sektor,
- OAV,
- YUNESKO klublari,
- Markaz va assotsiatsiyalar

Xalqaro hamkorlar:

- CRA Terre-ENSAG,
- ICOMOS,
- CACSA,
- IICAS,
- Barselona Universiteti,
- Shveytsariya Hukumati,
- O'zbekistondagi BMT agentliklari.

YUNESKO manzili: O'zbekiston, Toshkentshahri,
100037 Ergashev ko'chasi, 9-uy

Tel: (+ 998 71) 1207116, 1207154, 1207155 Faks: (+ 998 71) 1205159²³

YUNESKO Nizomida tashkilotning asosiy maqsadi quyidagicha ifodalangan: “Urush haqidagi fikrlar insonlarning ongida paydo bo’ladi, shu sababli insonlarning ongiga tinchlikni himoya qilish g’oyalarini singirish lozim”.²⁴ YUNESKO davlatlararo tashkilotining asosiy vazifasi – ta’lim, fan, madaniyat, kommunikatsiya va axborot sohalari orqali tinchlikni mustahkamlashga, insonlar turmush tarzini yaxshilashga, barqaror taraqqiyotga va madaniyatlararo muloqotga erishishga qaratilgan.

YUNESKOning barcha dasturlari BMT huzuridagi barcha tashkilotlar tadbirlari, shuningdek, Mingyillik rivojlanish maqsadlari bilan hamohangdir. YUNESKO tashkilotining asosiy organlari: Bosh anjuman, Ijroiya kengash va kotibiyat. 2009-yilda YUNESKO Bosh direktori lavozimiga Irina Bokova (Bolgariya) saylangan. O’zbekiston Respublikasi YUNESKO Ijroiya kengashiga 2009-2013 yillarga saylangan.

Tashkilotning 2008-2013-yillar uchun tasdiqlangan o’rta muddatli global ustivor yo’nalishlari Afrika qit’asini rivojlantirish va gender tengligini ta’minlash masalalariga bag’ishlangan. Ushbu davrda YUNESKOning keng qamrovli maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- barchani sifatli va uzluksiz ta’lim bilan ta’minlash;
- ilm-fanga e’tiborni kuchaytirish va barqaror taraqqiyot ta’limi siyosatini targ’ib etish;
- vujudga kelgan ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- madaniy turfaxillik, madaniyatlararo muloqot va tinchlik madaniyatini qo’llab-quvvatlash;
- inklyuziv bilimlar jamiyatini axborot va kommunikatsiya yordamida barpo etish.

²³ <http://www/Tashkent.unesco.org>

²⁴ Mo’minov A. P YUNESKOning norma ijodkorlik faoliyati J. Huquq-Prava-Law.-T; 2000, 52- bet

Ta'lim sohasida YUNESKONing ustuvor dasturi - "Ta'lim barcha uchun" dasturidir. "Ta'lim barcha uchun" butunjahon dasturi doirasida jahon hamjamiyatining oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha YUNESKO yetakchi muvofiqlashtiruvchi tashkilot deb hisoblanadi. Mazkur dastur 2018- yilga qadar quyidagi maqsadlarni o'ziga qamrab oladi:

- maktabgacha ta'lim tarbiya;
- bepul va sifatli boshlang'ich ta'limni ta'minlash;
- yoshlar va katta yoshdagilar uchun hayot ko'nikmalarini egallash dasturlarida ishtirokini kengaytirish;
- katta yoshdagilar savodxonligini 50 foizga oshirish;
- gender tenglik;
- ta'lim sifatini yuksaltirish.

Shuningdek, YUNESKO BMTning "Savodxonlik o'nyilligi" (2003-2012 yillar) va "Barqaror taraqqiyot ta'limi o'nyilligi"(2005-2014 yillar) dasturlarini jahon miqyosida amalga oshirilishida yetakchilik qiladi.

Madaniyat sohasida YUNESKO faoliyati xalqaro me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va amalga oshirish, madaniyatlararo muloqot va madaniy turfaxillik dasturlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Jumladan, Butunjahon madaniy va tabiiy yodgorliklarini saqlash bo'yicha konvensiya doirasidagi ro'yxatga O'zbekiston Respublikasidan 4ta nomzod kiritilgan (hozirda Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga 890 dan ortiq madaniy va tabiiy ob'ektlar kiritilgan) – Samarqand, Buxoro va Shaxrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, Xiva shahridagi Ichan qal'a majmuasi. Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish xalqaro konvensiya doirasidagi YUNESKO representativ ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasidan Navruz, Boysun madaniy makoni, Shashmaqom va Katta ashula nomzodlari kiritilgan (jahon bo'yicha ushbu ro'yxatda 166 nomzod). Buyuk Ipak Yo'li madaniy merosini o'rganishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqand

shahrida 1995- yili Markaziy Osiyo tadqiqotlari YUNESKO xalqaro instituti ta'asis etilgan.

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasining katta tajribasini inobatga olgan holda, 2000-yil Toshkent shahrida YUNESKO tomonidan Osiyo-Tinch okeani davlatlari milliy komissiyalarining mintaqaviy anjumani bo'lib o'tdi. Ushbu yilda Respublikamiz Milliy komissiyasi tashkilotning "YUNESKOning assotsiyalashgan maktablari" dasturining eng yaxshi koordinatori sovrinini oldi.

2001-yilda YUNESKO Bosh kotibining qaroriga ko'ra, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tinchlikni ta'minlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida qo'shgan xissasi uchun tashkilotning "Tinchlik bizning qo'limizda" mukofoti bilan taqdirlandi.

2013-yilning avgust oyida mamlakatimizga YUNESKO Bosh kotibi I.Bokovaning tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida I.Bokova Samarqand shahrida o'tkazilgan "Sharq taronalari" IX xalqaro musiqa festivalida ishtirok etdi.

2.2. Xalqaro amaliyotda gender masalalarining tahlili

Jins va gender tushunchalarini farqlash borasidagi birinchi urinish 1968-yili Kaliforniya universiteti professori Robert Stoller tomonidan amalga oshirildi.

Ayollarning kasbiy maqomi iqtisodiyotning barcha sohalarida erkaklarning maqomiga qaraganda ancha past bo'lib, tegishli ravishda bu ayollarning xizmat pog'onalarida sekin o'sishiga va kasbiy maqomi past darajada bo'lishiga olib boradi. Muammoning boshqa jihati shundaki, ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi erkaklarnikiga qaraganda ancha yuqori. Turli tanazullar paytida eng avvalo ayollar ishdan bo'shatiladi, ishga olish paytida esa erkaklar afzal ko'riladi. Ayollarning mehnat bozoridagi mavjud ahvolini yorituvchi yana bir ko'rsatkich ayollar ishiga kam haq to'lanishida namoyon bo'ladi va u xuddi shu ish uchun erkakka to'langan ish haqining bir qismini tashkil etadi xolos. Teng mehnat uchun teng haq to'lash tamoyilining buzilishi barcha joyda kuzatiladi. Ayollarni yuqori haq to'lanadigan, istiqbolli lavozimlardan surib chiqish jarayoni sodir bo'lmoqda.

Shuni qayd etish zarurki, iqtisodiy sohada gender tengsizlik masalalari jiddiy tadqiq qilinishi kerak. Har qanday sohada, shu jumladan, iqtisodiy sohada gender muammolari bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilarning vazifasi ijtimoiy nuqtai nazarni gender nuqtai nazariga ko'ra o'zgartirish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi xatti-harakat tartibining o'ziga xosligini aniqlashdan iborat. Ijtimoiy hayotda ommaviy axborot vositalari alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat doimiy ravishda gender obrazlarni qayta tiklaydi, balki faol ravishda ularni kuchaytirib, shusiz ham og'riqli gender muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Zamonaviy OAVning butun birligi u yoki bu jinsga mansub ramziylikka e'tibor qaratmoqda. Erkak va ayollarga tanlov imkoniyatini belgilovchi obrazlar yaratilmoqda. Bular "super erkak va super ayol, feministlar va an'anaviy ayollar obrazlaridir". Tanlash imkoniyati unchalik keng emas. Biroq, ular erkaklar va ayollar "tartibni boshqarishi uchun" ega bo'lgan imkoniyatlarini belgilaydi. Turli jamiyatlarda ommaviy axborot vositalari davlat

hokimiyati darajasida shakllantiriladigan ijtimoiy buyurtma, qarashlarga mos tarzda erkaklar va ayollar obrazlari targ'ib qilinadi. Qayd etilganidek, bu jarayond demokratik institutlarni rivojlanish jarayonlari, jamiyatning gender madaniyati muhim ahamiyatga ega.

Xususiy soha gender munosabatlari tashkil topadigan yana bir soha bo'lib, u oilani va unga bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar spektrini qamrab oladi. Bunga yaqin atrofda yuzaga keladigan shaxslararo birlik kiradi. Aynan uy va oila gender shakllanishi nazariyasi tarafdorlari tomonidan ayollar tajribasining muayyan manbasi va "ayollarga tazyiq o'tkazish manbai" hisoblanadi. Unda ayollarni uy dunyosiga siqib chiqarish jarayoni faol davom etadi. Uy kategoriyasi nafaqat an'anaviy jamiyatda, balki gender madaniyatni o'zlashtirish va qabul qilishga da'vogar jamiyatda ham ayollar dunyosi sifatida ko'zdan kechiriladi.

Uy dunyosi bilan bog'liq bo'lgan va gender stereotiplarning qayta tiklanishiga ta'sir ko'rsatadigan barcha narsalar an'anaviy gender ijtimoiylashuvi bilan chegaralangan, gender rollarga nisbatan eskirgan qarashlarga asoslangan doiradan chiqib ketish yo'llarining jiddiy tahlilini taqozo etadi. "Uy dunyosi qanday tashkil topgan, unda qanday huquq va qoidalarga rioya etiladi, u umuman jamiyatda qanday o'rin egallaydi, uy dunyosida erkakning roli qanday"²⁵, ushbu savollarga

javoblar xususiy sohaning ayollar va erkaklar imkoniyatlari tengsizligi tashkil topishi jarayonidir.

Mustaqillik e'lon qilinishidan bir necha yil o'tiboq O'zbekiston Respublikasi hukumati jamiyat hayotida xotin-qizlarning ahamiyatini oshirishga alohida e'tibor bera boshladi. 1995- yil 2- martida O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning "O'zbekiston Respublikasidagi davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini kuchaytirish choralari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. 1999- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan "Ayollar yili" deb e'lon qilindi. Ushbu yil boshlanishidanoq xotin-qizlarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash

²⁵ Mo'minova. P YUNESKO kafedralari va Tinchlik madaniyati.//J. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari.T;2000, B.60-65

borasidagi ishlar sezilarli darajada faollashuvi bilan belgilandi. Hukumat qo'llab-quvvatlashi bilan O'zbekistonda ularning maqomini oshirishga qaratilgan bir qator samarali dasturlar ishlab chiqildi.

Biroq, ushbu choralarga qaramay, aholining ko'pchiligini tashkil etgan xotin-qizlar ko'p sabablarga ko'ra ko'p sohalarda erkaklar bilan teng sharoitda emas. Chunonchi, garchi O'zbekiston qonun hujjatlarida jins asosida har qanday kamsitish taqiqlangan bo'lsada va mehnat bozorida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish uchun keng choralar tizimi nazarda tutilgan bo'lsada, bozor munosabatlari sharoitida ayollarni himoya qilish choralari ular mehnatining narxi oshishiga olib kelishi masalasi tobora ko'proq ko'tarilmoqda, hamda statistika ko'rsatishicha, xotin-qizlar (ayniqsa kichik bolasi borlari)ning ishga joylashish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning Oliy rahbarlik organlarida 2002- yilning boshida ayollar 13,7 foizni, erkaklar esa 86,3 foizni tashkil etgan; shu jumladan qonunchilik va vakillik organlarida ayollar ulushi 12,3 foizni, erkaklar 87,7 foizni, ijroiya hokimiyati organlarida - 15,3 foizni ayollar va 84,7 foizni - erkaklar, sud-hokimiyati organlarida -20,3 foizni ayollar va 79,7 foizni - erkaklar tashkil etgan²⁶. Bunday erkaklar va ayollar qatnashuvidagi asimmetriyani turli sabablar bilan izohlash mumkin: ayollarning ehtiyoj va xohishlarini inobatga oluvchi amaliy tenglik mexanizmi yo'qligi, jamiyatda patriarxal me'yor va aqidalarning saqlanishi va boshqalar. Bu holat o'tish davri sharoitida avvalgi davrlarning muhim yutuqlarining barham topishiga olib keldi. Ayollarning madaniy me'yorlari va stereotiplari, lavozim borasidagi intilishlari hamda ularni ro'yobga oshirish imkoniyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston xotin-qizlari mamlakatlarining siyosiy hayotida qatnashish huquqlarini yoqlab chiqa boshladilar. Ularning faoliyati O'zbekistonga demokratik islohotlar

²⁶ Yearbook of the International Law Commission 1950. Vol.II. N.Y.1951. p.223

yo'lidan borayotgan mamlakat qiyofasini berishga intilayotgan hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Chunonchi, 2004 yilda Oliy Majlisga saylov to'g'risidagi qonunning 22-moddasiga «ayollar soni siyosiy partiyalar nomzodlarning umumiy ro'yxatining 30%dan kam bo'lmaslik kerak» degan o'zgartish kiritildi. Ushbu o'zgarishning kiritilishi O'zbekiston parlamentidagi xotin-qizlar soni 2005 yilda quyi palatada 17,5% ga, yuqori palatada 23,5% yetdi.²⁷

O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib YUNESKONing xotin-qizlar huquqlarini xalqaro darajada tasdiqlovchi va davlatning huquqlarni muhofazasiga qaratilgan harakat rejalarini belgilovchi "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish" to'g'risidagi Konvensiyasiga qo'shildi. Respublikaning Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Ish vaqtini haftasiga qirq soatgacha qisqartirish to'g'risida" konvensiyasi, "Onalik va bolalikni muhofaza qilish", Vena deklaratsiyasi (1993 y.); Pekin deklaratsiyasi va Harakat platformasi (1995 y.) kabi boshqa xalqaro hujjatlarga qo'shilganligi va boshqa xalqaro va milliy hujjatlar xotin-qizlar huquqlarini ta'minlaydi.

Shuning bilan birga O'zbekistonda xotin-qizlar sharoiti bilan bog'liq yechimni talab qilayotgan talaygina muammolar mavjud. Boshlang'ich, umumiy o'rta, maxsus o'rta va professional ta'lim tizimida gender tenglikka erishish ustun masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu munosabatda, xotin-qizlar tashkilotlari barcha obro'li o'quv muassasalariga qabul qilinadiganlarning kamida 30% xotin-qizlar bo'lishini talab qilmoqdalar. Bundan tashqari xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, xotin-qizlar savdosi, ayollarning mehnat bozoridagi ahvoli kabi (nafaqat O'zbekiston uchun) dolzarb muammolar hamon mavjud.

Shunday qilib, Sovet davlati xotin-qizlar va erkaklar tengligi borasida olib borgan siyosatining tahlili ijobiy natijalar bilan bir qatorda salbiy oqibatlar ham bo'lganini ko'rsatadi. Ijobiy natijalar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

²⁷ Yearbook of the International Law Commission 1950. Vol.II. N.Y.1951. p.227

birinchidan, oddiy kasblarning aksariyatiga xotin-qizlarga imkon berilganligi, o'quv yurtlariga kirishda kamsitilmaslik; ikkinchidan, kasbiy mehnat bilan band ayollarning iqtisodiy mustaqilligi; uchinchidan, xotin-qizlar o'zini anglashining o'sishi va jamoat ishlarga keng jalb qilish yo'li bilan ijtimoiy faolliklarini oshirilishi. Salbiy oqibatlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish lozim: birinchidan, mehnat sohasida jins asosida kasbda kamsitish va xotin-qizlar mehnati uchun kamroq ish haqi to'lash hamon mavjud edi; ikkinchidan, turli xil imtiyozlarga ega ayollarga nisbatan davlat paternalizmi ishlab chiqarish sohasida xotin-qizlar ma'qul ko'rilmagan xodim sifatida qaralishiga olib keldi. Bu hodisa 1985 – 1991- yildagi iqtisodiy o'zgarishlar davrida ayniqsa ravshan ko'rindi. Uchinchidan, davlat xotin-qizlar zimmasidagi ikki karra og'irlik masalasini yechimini uddalay olmadi, bu esa ularning erkaklar bilan teng huquqli ravishda kasb faoliyatiga kirib kelishi yo'lida jiddiy to'siq bo'ldi. Mustaqillikka erishilgach, O'zbekistonda xotin-qizlar sharoitini yaxshilashga va gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan izchil tadbirlar olib borildi, ammo iqtisodiy muammolar, aholi daromadining pastligi, oila va jamiyatda saqlanib kelayotgan patriarxat an'analar xotin-qizlarning ko'p muammolari yechilmaganligicha qolaverishiga olib kelmoqda. Ushbu YUNESKOning gender tenglik konsepsiyasi va standartlari bo'yicha sodir bo'lgan ijobiy evolusiyasini qayd etish kerak. “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya”da (1952y.) shu narsa ta'kidlangan ediki, “ayollarga saylovlarda erkaklar bilan teng sharoitda, biron-bir kamsitishsiz ovoz berish”, (1-modda), “milliy qonun bilan belgilangan barcha muassasalarga... saylanish” (2-modda), “jamoatchilik-davlat xizmatida lavozimga ega bo'lish” (3-modda)huquqlari berilishi kerak.²⁸

1966-yilda YUNESKO o'z Ustaviga xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi to'g'risida 2 ta modda kiritdi va 1967-yilda “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Deklaratsiya”ni qabul

²⁸ The Programme and Budget of the Organisation (document C/5) P; 2012. by the UNESCO General Conference.

qildi. Unda “Xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligini inkor etish yoki cheklashga olib keladigan kamsitish mohiyatiga ko’ra adolatsiz bo’lib, inson qadr-qimmatiga nisbatan jinoyatdir” (1-modda) va shu sababli milliy davlatlarda “Erkaklar va ayollar tengligi tamoyili konstitutsiyaga kiritilishi yoki qonunan boshqacha tarzda kafolatlanishi kerak” (2-modda), deb ta’kidlanadi.

XX asrning 70-90-yillaridagi xotin-qizlar harakati butun dunyodagi o’z tarmoqlari va koalitsiyalaridan ayollar muammolariga, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ekologik sohalaridagi muammolarni hal etishda ularning tajribasi muhimligiga jamoatchilikning e’tiborni tortish uchun foydalandi. Bu xotin-qizlar huquqlarining inson huquqlari sifatida keng yoyilishiga va bu sohada o’zgarishlarga erishish borasida siyosiy strategiyalarning rivojlanishiga, butun jahon xotin-qizlarining g’oyalar va tajriba bilan almashishiga, xotin-qizlar huquqlari masalalariga e’tiborni tortish strategiyalarini ishlab chiqishga olib keldi. Umumjahon xotin-qizlar federatsiyasi YUNESKOda ayollarga ijtimoiy, iqtisodiy hayotda, fuqarolik, mulkchilik va oilaviy munosabatlar sohalarida erkaklar bilan to’la teng huquq berilishini talab qildi.

Xotin-qizlar tashkilotlarining tashabbusiga ko’ra YUNESKO Bosh Assambleyasi 1975- yilni Xalqaro xotin-qizlar yili deb e’lon qildi va uning doirasida Birinchi Butunjahon konferensiyasini chaqirdi, uning ishida 133 mamlakatdan kelgan delegatlar qatnashdi. Ular tenglik, taraqqiyot va tinchlik masalalarini muhokama etishdi. Konferensiya ishtirokchilari Butunjahon Harakat Dasturini - xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo’yicha birinchi xalqaro pakti qabul qilishdi. YUNESKO Bosh Assambleyasi xotin-qizlar tashkilotlari tashabbusini qo’llab-quvvatlagani holda 1976-1985- yillarni “Xotin-qizlar o’n yilligi” deb e’lon qildi, 1976 yilda YUNESKOning Xotin-qizlar taraqqiyot fondi tashkil etdi.

1979-yilda YUNESKO “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to’g’risidagi konvensiya”ni (CEDAW)ni qabul qildi va bu xujjat xotin-qizlar huquqlarini yetarli darajada to’liq ifodalaydigan dasturiy

hujjat bo'lib qoldi. 1980- yilda Kopengagenda (Daniya) Xotin-qizlar muammolari bo'yicha ikkinchi butunjahon konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda 145 mamlakatdan kelgan 1300 dan ortiq delegat qatnashdi va yana 800 kishi shu paytda bo'lib o'tgan Nohukumat tashkilotlari forumida qatnashdi. Delegatlar dunyoning barcha regionlaridagi xotin-qizlarning ahvoriga doir ko'plab muammolarni muhokama qildilar. Xuddi shu masalalar YUNESKOning 1985-yilda Nayrobida (Keniya) bo'lib o'tgan xotin-qizlar muammolariga oid Uchinchi Butunjahon konferensiyasida ko'rib chiqildi. Konferensiyada 157 mamlakatdan 1400 nafar rasmiy delegatsiyalar vakillari qatnashdi, ular Nayrobi strategiyalari - 2000 yilgacha xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha harakatlar rejasini qabul qildilar.

Xotin-qizlar huquqlarining konsepsiyasi inson huquqlarining gender jihatlarini yangicha ko'rishga yordam berdi. Bu hol YUNESKOning 1993-yil Venada bo'lib o'tgan inson huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasiga tayyorgarlik jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi.

Konferensiyaning dastlabki murojaatida xotin-qizlarning huquqlar alohida ta'kidlanmagan edi. Shunda butunjahon xotin-qizlari Ayollar huquqlarining inson huquqlari deb hisoblanishi uchun global kompaniya boshlandi. Konferensiya nomiga uning barcha darajalardagi yig'ilishlarida xotin-qizlar huquqlariga inson huquqlari sifatida kompleks yondashishga va gender zo'ravonlikni madaniyat, irq va toifadan kelib chiqqan holda turli shakllarda namoyon bo'ladigan, va inson huquqlarining buzilishi, deb hisoblangan va zudlik bilan choralar ko'rishni talab etadigan umumiy fenomen hodisa deb tan olishga da'vat etuvchi petitsiya tayyorlandi. Petitsiya 23 tilga tarjima qilindi va 1000 dan ortiq tashabbuskor guruhlar dunyoning 124 mamlakatidan yarim millionta imzo to'pladi. Natijada Butunjahon konferensiyasi chaqirilgan paytga kelib "xotin-qizlarning huquqlari – inson huquqlari" g'oyasi butun dunyodagi minglab ayollarni birlashtiruvchi hamda inson huquqlari sohasida yanada keng muhokama etiluvchi "yangi" shiorlardan biri bo'lib qoldi.

Vena deklaratsiyasida: “Inson, ayollar va qizlarning huquqlari inson umumiy huquqlarining ajralmas va bo’linmas tarkibiy qismidir”²⁹ deb ta’kidlanadi. Bu - shubhasiz, xalqaro xotin-qizlar harakatining ulkan yutug’i bo’ldi, YUNESKOning keyingi konferensiyalarida ham xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda davom etdi. 1994-yilda Qohirada (ICPD) bo’lib o’tgan YUNESKO ning “Nufus va taraqqiyot” xalqaro konferensiyasi barcha ayollarning, ayniqsa qiz bolalarning salomatligini saqlashni, ta’lim olishini va huquqlarini ta’minlash nufus va taraqqiyot sohasidagi samarali siyosatning asosiy omili hisoblanadi, degan to’xtamga keldi. 1995-yilda Kopengagenda ijtimoiy rivojlanish bo’yicha bo’lib o’tgan umumjahon sammitida ayollarning kambag’allic va ijtimoiy nochorlik bilan kurashishlari uchun siyosiy va iqtisodiy sohalarda faol ishtirok etishlariga yordamlashish zarurligi ta’kidlandi.

1995-yil Pekinda (Xitoy) o’tkazilgan YUNESKOning To’rtinchi Butunjahon xotin-qizlar muammolari bo’yicha konferensiyasi xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash, ayollar va erkaklar o’rtasida tenglikka erishish borasida keng ko’lami eng yirik va noyob tadbir bo’ldi. Unda 189 mamlakatdan 47000 kishi qatnashdi, ular butun dunyo xotin-qizlari maqomini oshirish bo’yicha Harakat Platformasini qabul qildilar.

YUNESKOning IV Butunjahon konferensiyasi qabul qilgan xujjatlar va keyingi materiallar hamda «Pekin+5» dasturi doirasida ishlab chiqilgan strategiyalar xotin-qizlarning huquqlari muammolarini anglashda yangi bosqichni anglatadi. Xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash va gender tengligi g’oyasiga nisbatan kamsitishga barham berish zarurligiga asosiy e’tiborni qaratishdan asta-sekin o’tila boshlanadi.

Konferensiyada ikkita asosiy xujjat qabul qilindi: Deklaratsiya va harakatlar Platformasi. Pekin deklaratsiyasi jahon hamjamiyati gender tengligiga erishishga

²⁹ Система, структура и процесс развития современное международное отношений. (отв.ред. В.И.Гайтман) М., Наука, 2005, стр117

yo'naltirilganligini tasdiqlaydi. 26 va 35-moddalarda "xotin-qizlarning iqtisodiy resurslardan, shu jumladan yer, kreditlar, ilm-fan va texnika, professional tayyorgarlik, axborot, kommunikatsiya vositalari va hokazolardan teng foydalanishlarini ta'minlash"³⁰ zarurligi ta'kidlanadi. Harakatlar Platformasida "xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi" tushunchasidan gender tengligi tushunchasiga o'tish ham amalga oshiriladi, zotan xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor berilmoqda. Platforma bartaraf etilishi ayollarning ahvolini yaxshilashga ko'maklashadigan asosiy muammoli sohalarni ajratib ko'rsatadi:

- Ayollar va qashshoqlik;
- Ta'lim va professional tayyorgarlik sohasidagi tengsizlik;
- Sog'liqni saqlash sohasidagi tengsizlik va tegishli xizmatlardan teng foydalanmaslik;
- Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik;
- Xotin-qizlar uchun qurolli mojarolarning oqibatlari;
- Iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarning faoliyatida, ishlab chiqarish jarayonlarida va resurslardan foydalanishda qatnashish borasida xotin-qizlarning noteng huquqlari;
- Ma'muriyatni bo'lish va barcha darajalarda direktiv qarorlar qabul qilish sohasida ayollarning tengsizligi;
- Barcha darajalarda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilashga ko'maklashishga qaratilgan mexanizmlarning tengsizligi;
- Kommunikatsiyaning barcha tizimlarida va ayniqsa ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarning stereotip obrazlarini yaratish;
- Tabiiy resurslarni boshqarishda erkaklar va ayollarning tengsizligi;

³⁰ YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi.1994-2009. T; 2012, 45-bet.

- Qizlarga nisbatan kamsitishning va ularning huquqlari buzilishining saqlanib qolayotganligi.

Pekin konferensiyasidan keyin YUNESKONing faoliyati ana shu muammoli sohalar bilan belgilandi. 1996 – 2001 yillar orasidagi davrda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilashga doir o'rtacha muddatli reja tayyorlandi. Uning natijalari xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha Komissiyaning 44-Sessiyasida (mart 2001 y.), shu jumladan YUNESKO Bosh kotibining ma'ruzasida muhokama qilindi. Shunday qilib, gender tenglik g'oyalari xalqaro hamjamiyatning kun tartibiga mustahkam kirdi. Bu esa YUNESKO Bosh Assambleyasining "Xotin-qizlar 2000-yilda: erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi tenglik, XXI asrda taraqqiyot va tinchlik" (2000 y.) mavzuidagi Maxsus Sessiyasida yana bir bor ta'kidlandi. Mana shu Sessiyada ishtirok etayotgan Hukumatlar Pekin deklaratsiyasida hamda Harakatlar Deklaratsiyasida va Nayrobidagi istiqbolli strategiyalarda bayon etilgan maqsadlar va vazifalarga ular sodiq ekanliklarini tasdiqlovchi rezolusiya loyihasini qabul qildilar.

YUNESKO tuzilmalari tomonidan xotin-qizlar huquqlari bo'yicha ishlab chiqilayotgan xalqaro standartlar ijobiy rol o'ynashda davom etmoqda: xalqaro bitimlarning ratifikatsiya qilinishi milliy qonunchiliklarni jahon standartlariga moslashtirdi. Bunday amaliyotsiz global darajadatenglik madaniyati g'oyalarini shakllantirish va amalga oshirishning iloji yo'q edi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi imkoniyatlarni barobarlashtirish borasidagi zamonaviy yo'nalish so'zsiz shu jarayonning ifodasidir.

2.3. II bob xulosasi

Xalqaro tashkilotlar guruhini o'rganishda YUNESKO tashkiloti alohida ahamiyatga ega. Jahon hamjamiyatidagi ishtirokida u doimo barqaror rivojlanish yo'lidan bormoqda. Dasturlarning hayotga yaqinligi va ular asosida xalqalar hayotining yaxshi tarafga o'zgarishi esa ijobiy holatdir. Asosiy maqsad esa inson shaxsining har tomonlama qo'llab quvvatlanishida ko'rinadi. Uning faoliyatida gender masalalarining tahlili esa avvalo teng huquqlilikka asoslangan jamiyat barpo etishga asos bo'lib hizmat qilmoqda. Xotin-qizlar huquqlarining nafaqat qonuniy jihatdan himoyalanganligi balki uning hayotimizda amaliy tarafdan ham ustuvor ekanligini ko'rishimiz mumkin.

III bob. O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining istiqbollari.

3.1. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi faoliyati

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan millatlar tashkiloti (UNESCO) 1993-yil 26-oktabr kuni Parij shahrida o'tkazilgan YUNESKO bosh anjumaning 27-sessiyasida qabul qilingan.

YUNESKO bilan O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida birinchi memorandum 1995-yil 25-avgust kuni YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayyorning O'zbekistonga tashrifi doirasida imzolangan. Toshkent shahrida YUNESKO Vakolatxonasini ochish to'g'risidagi shartnoma 1996-yil 23-aprel kuni O'zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Parij shahridagi YUNESKO Bosh qarorgohiga rasmiy tashrifi doirasida imzolangan.

Rejalashtirilgan loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilganidan so'ng, 2006-yil 8-sentabr kuni YUNESKO Bosh direktori Koichiro Matsuraning O'zbekistonga tashrifi doirasida YUNESKO bilan O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida yangi memorandum imzolandi. YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlik O'zbekiston Respublikasining YUNESKODagi doimiy vakolatxonasi va YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi orqali muvofiqlashtiriladi. 1995-2009-yillarda O'zbekiston Respublikasi YUNESKOning quyidagi qo'mitalariga saylangan:

- 1995-1997-yillar YUNESKOBosh qarorgohi qo'mitasi;
- 1995-2005-yillar "Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarining tarixi" xalqaro ilmiy qo'mitasi;
- 1997-2001-yillar YUNESKO ijroiya kengashi;
- 1999-2001-yillar Orol dengizi muammolari bo'yicha ilmiy- maslahat qo'mitasi;

- 1999-2001-yillar YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyalar doimiy qo'mitasi;
- 1999-2000-yillar Dinlararo muloqot bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasi;
- 2001-2005-yillar Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonalarini e'lon qilish xalqaro hayati;
- 2001-yillar YUNESKO Bosh anjumani 31-sessiyasining Vakolat qo'mitasi;
- 2001-2005-yillar Kommunikatsiyasini rivojlantirish hukumatlararo qo'mitasi;
- 2005-yil YUNESKO Bosh anjumani 33sessiyasining Madaniyat komissiyasi;
- 2005-2009-yillar "Jahon xotirasi" dasturi xalqaro maslahat qo'mitasi;
- 2005-2009-yillar Ijtimoiy o'zgarishlar boshqaruvi (MOST) dasturining hukumatlararo kengashi;
- 2007-yil YUNESKO Bosh anjumani 34-sessiyasining Yuridik qo'mitasi;
- 2009-2013-yillar YUNESKO Ijroiya kengashi.

O'zbekiston YUNESKOning quyidagi xalqaro me'yoriy xujjatlariga a'zo bo'lgan:

- Qurolli mojoro chiqqan holda madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (Birinchi Potokol bilan). 1954-yil 14- may (1996- yilda O'zbekiston a'zo bo'lgan);

- Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqaga o'tkazishning oldini olish va taqiqlashga qaratilgan choralar to'g'risidagi konvensiya . 1970-yil 14-noyabr(1996-yilda O'zbekiston a'zo bo'lgan);

- umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya. 1960-yil 15-dekabr (1997-yil O'zbekiston a'zo bo'lgan);

- Suvda suzuvchiquشلarning asosiy yashash manzili bo'lgan xalqaro ahamiyatga ega suvli-botqoq yerlar to'g'risidagi konvensiya .(ramsar konvensiyasi). 1971-yil 2-fevral (2001-yil O'zbekiston a'zo bo'lgan);

- Nomoddiy me'rosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya.2003-yil 15-oktabr (2008-yil O'zbekiston a'zo bo'lgan).

O'zbekistonda YUNESKO ko'magida tashkil etilgan markazlar:

▪ Toshkent media manbai markazi (Kommunikatsiyani rivojlantirish hukumatlararo qo'mitasi dasturi);

▪ Informatika o'quv markazi (Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti);

▪ Tinchlik ta'limi va madaniyatlararo hamjihatlik markazi (Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti);

▪ Katta yoshdagilar ta'lim markazi(O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi);

▪ Xiva gilamchilik markazi;

▪ Buxoro gilam to'qish markazi;

▪ Samarqand qadimiy qog'ozini tiklash markazi;

▪ Shaxrisabz so'zana tikish markazi;

▪ Toshkent milliy musiqa asboblari markazi;

▪ Toshkent kulolchilik ustaxonasi;

▪ Shaxrisabz kulolchilik ustaxonasi;

▪ Boysun kulolchilik ustaxonasi;

▪ Marg'ilon to'qimachilik markazi;

▪ Toshkent to'qimachilik markazi;

▪ Xiva to'qimachilik markazi.

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Komissiyasi

1945-yilda qabul qilingan YUNESKO nizomining VII moddasiga muvofiq, a'zo-davlatlar YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasini tashkil etishi lozim. Mazkur tashkilot YUNESKO dasturlari bo'yicha davlatning muvofiqlashtiruvchi muassasi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida ushbu noyob Milliy komissiyalar tizimi faqatgina YUNESKO tashkilotida joriy etilgan.

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda N629-sonli qarori asosida tashkil topgan. Komissiyaning asosiy maqsad va vazifalari, faoliyati va moliyaviy mablag'lari bo'yicha axbarot muassasaning nizomida aks ettirilgan.

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan hukumat tashkiloti hisoblanadi. Tashkilotning ushbu tuzilmasi vazirlik va idoralar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini va o'zaro qo'llab-quvvatlashni taminlaydi hamda komissiyaning turli xil milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlari bilan faoliyatini muvofiqlashtirishda yordam beradi.

Milliy komissiya tuzilganidan buyon, u YUNESKO dastur va loyihalarini amalga oshirish, ushbu tadbirlarga milliy salohiyatni jalb qilish hamda YUNESKO vakolati doirasida milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda.

Maqsad va vazifalari

Milliy komissiyaning asosiy maqsadi respublika vazirlik va idoralarining O'zbekiston Respublikasida YUNESKO dasturlarini ishlab chiqishini va amalga oshirishini muvofiqlashtirishdir.

Komissiyaning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- YUNESKO tadbirlarida va loyihalarida O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tashkilotlari va mutaxassislarining ishtiroki to'g'risida YUNESKOning kotibiyatiga hamda mintaqaviy vakolotxonalariga takliflar tayyorlash va taqdim etish;

- Ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasida xalqaro mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha YUNESKOning mintaqaviy vakolotxonalarini va markazlari bilan muntazam ravishda muzokaralar o'tkazish;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va jahon miqyosida YUNESKO tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishda qatnashish;

- YUNESKO tomonidan tashkil etiladigan Bosh anjuman hamda boshqa hukumatlararo tadbirlarini tayyorlashga va o'tkazishga ko'maklashish;

- YUNESKO dasturlarini ishlab chiqish va bajarishda O'zbekiston Respublikasining davlat va nodavlat tashkilotlarini jalb etish;

- YUNESKO kotibiyatida va mintaqaviy vakolotxonalarida ishlash uchun respublika mutaxassisleri zaxirasini tayyorlash;

- YUNESKO vakolati doirasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish.³¹

Tarkibi

Milliy komissiya umumiy majlis va kotibiyatdan tashkil topgan bo'lib, komissiyaning raisi ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari, axborot tizimlari va telekommunikatsiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari hisoblanadi. Umumiy majlis tarkibiga 32 kishi a'zodir. Umumiy majlis Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, tegishli vazirlik va idoralar (shu jumladan, oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, Xalq ta'limi vaziri, Madaniyat va sport ishlari vaziri, Fanlar akademiyasi raisi, Badiiy akademiya raisi, Aloqa va axborotlashtirish agentligi Bosh direktori, Milliy teleradiokompaniya raisi, Milliy axborot agentligi Bosh direktori), hokimiyatlar, uyushmalar, jamg'armalar, markaziy muassasalar, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat.

Mas'ul kotib tomonidan boshqariladigan kotibiyat Komissiyasining doimiy faoliyat ko'rsatadigan muassasasi hisoblanadi. Kotibiyat quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi:

- Ta'lim sohasida – “Ta'lim barcha uchun” dasturi, barqaror taraqqiyot ta'limi, inkulziv ta'lim, YUNESKO kafedralari, YUNESKoning birlashgan maktablar

³¹ YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi. 1994-2009. T; 2012, 23-bet.

tarmog'i, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ta'lim, jamoat ta'lim markazlari, kasb-hunar o'quv muassasalari tarmog'i (YUNEVOK), sog'lom turmush tarsi ta'limi;

- Fan sohasida- MOST (Ijtimoiy islohotlarni boshqarish") dasturi, bioetika dasturi, Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti, qayta tiklanadigan energiya manbalari, fan ta'limi, aniq fanlar, falsafa;

- Madaniyat sohasida – madaniy moddiy va nomoddiy meros;

- Kommunikatsiya va axborot sohasida- “Axborot barcha uchun” dasturi, “Jahon xotirasi” dasturi.

Dasturlar bo'yicha faoliyat

Ta'lim

Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan “Talim barcha uchun”(2000-2015-yillar) Savodxonlik o'n yilligi (2002-2013-yillar)va barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligi (2004-2015) dasturlari ta'lim sohasidagi asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.YUNESKO tashkiloti ushbu dasturlarni amalga oshirish bo'yicha yetakchi tashkilot deb tayinlangan. Oliy ta'lim (1998-yil, 2009-yil), kasb hunar ta'limi (1999-yil)va katta yoshdagilar ta'limi (1997-yil, 2009-yil) bo'yicha YUNESKO tomonidan xalqaro anjumanlar tashkil etilgan va maxsus tavsiyanomalar qabul qilingan.

2006-yilning may oyida YUNESKONing Toshkentdagi vakolatxonasi va O'zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlikda BMTning Barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligiga bag'ishlangan anjuman tashkil etildi. Ushbu sohadagi tadbirlar davomi sifatida, 2007-yilda YUNESKONing Toshkent va Bankokdagi vakolatxonalarini bilan hamkorlikda “Barqaror taraqqiyot ta'limini targ'ib etishda innovatsion yondashuv” loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Loyiha doirasida Barqaror taraqqiyot ta'limi bo'yicha 28 turdagi o'quv dasturlar (multimedia va bosma nashr formatida) tayyorlanadi va tegishli muassasalarda tarqatiladi, universitet va o'quvchilarning malakasini oshirish muassasalarida o'quv seminarlar

tashkil etildi. O'zbekiston mutaxasislari barqaror taraqqiyot ta'limi ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha bir qator YUNESKO uchrashuvlarida qatnashdilar (2006-2007-yillar).

2006-yilning iyul-noyabr oylarida PLANET 3 “ Chiqindi boshqaruvi’ o’quv qo’llanmasi Osiyo va Tinch okeani YUNESKO madaniy markazi, Xalq ta’limi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo’mitasi hamkorligida o’zbek tilida nashr etildi. 2008-yilda PLANET 1 “Suv manbalarini asrash” va PLANET 2 “O’rmonni muhofaza qilish’ o’quv qo’llanmalari ham o’zbek tilida nashr etildi. Qo’llanmalar O’zbekistondagi o’quv muassasalariga tarqatildi.

Kasb hunar o’quv muassasalari tarmogi (YUNEBOK)

2004-2006-yillarda O’zbekistonda YUNESKO ning “Kasb-hunar ta’lim sohasida ko’chma guruhi” loyihasi amalga oshirildi. O’zbekiston mutaxassislari kasb-hunar ta’limi sohasida Avstraliya, Koreya Respublikasi va Tayland kabi davlatlar tajribasini o’rganishga muvaffaq bo’lishdi. Loyiha doirasida O’zbekiston viloyatlarida o’quv seminarlar hamda “ ijtimoiy hamkorlik va ko’chma kasb-hunar ta’limi guruhi” mavzusidagi ilmiy anjuman tashkil etildi. Anjumanda o’zbekistonlik mutaxasislarning hisobati taqdim etildi va kasb-hunar ta’limi sohasida xorijiy mamalakatlar tajribasini taqdim etish masalalari ko’rib chiqildi. Ushbu tadbirlarning davomi sifatida, Yevropa Ittifoqining TESIS dasturi doirasida 2006-2007-yillar davomida “kasb-hunar ta’limi sohasida ijtimoiy hamkorlik” loyihasi O’zbekistonda amalga oshirildi. Ushbu loyihaning ustuvor maqsadlaridan biri O’zbekiston kasb-hunar ta’limi sohasida (boshqaruv va o’qitish jarayonlarida) yangi siyosatini joriy etish.

YUNESKO Birlashgan maktablar tarmog’i

1953-yilda asos solingan YUNESKO ning Birlashgan maktablar dasturi tarmog’i YUNESKO ning ta’lim sohasidagi asosiy dasturi hisoblanadi. Ushbu dasturning asosiy maqsadi xalqaro hamjihatlik, tinchlik, madaniyatlararo muloqat

va barqaror taraqqiyot g'oyalarini targ'ib etish hamda ta'lim sifatini oshirilishga qaratilgan.

Ushbu tarmoqni O'zbekistonda rivojlantirish bo'yicha YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi faol ish olib bormoqda. 1996-yildan buyon, ushbu tarmoqqa O'zbekistonning 45ta ta'lim muassasasi (o'rta ta'lim maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) a'zo bo'lgan. Ushbu ta'lim muassasalari bir qator xalqaro dasturlarda muvaffaqiyatli qatnashib, "Ta'lim barcha uchun" maqsadlarini va BMTning barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligini targ'ib etib kelmoqda. 1997-2007-yillarda BMT tizimi tashkilotlari, xalqaro, mintaqaviy va milliy nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda Birlashgan maktablar tarmog'iga a'zo muassasalar uchun Markaziy Osiyo mintaqasi yoshlar yozgi lageri tashkil etib kelindi. Ushbu o'quv lagerlarining asosiy maqsadi hozirgi global muammolar haqida yoshlarning xabardorligini oshirish, umuminsoniy va umuminsoniy va milliy qadriyatlar haqida bilimlarni oshirish va ijtimoiy islohatlarda yoshlarning faol va bunyodkor o'rnini targ'ib etishdan iborat. O'quv lageri barqaror madaniy merosi kabi mavzularni qamrab olgan.

Lager misolida yoshlar orasida tinchlik madaniyati, xalqaro hamjihatlik g'oyalarini targ'ib etgani uchun, O'zbekiston Respublikasi YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyasi YUNESKOning "Tinchlik qo'limizda" sovrini bilan 2001-yilda taqdirlandi. 2000-yilda esa O'zbekiston mutaxasisi Osiyo va Tinch okeani mintaqasida Birlashgan maktablar tarmog'ining eng ilg'or milliy muvofiqlashtiruvchisi deb topildi.

Birlashgan maktablar tarmog'I doirasida O'zbekiston maktablari UNESKOning turli dasturlarida faol qatnashib kelmoqda, jumladan, "Patrimono", "Mondialogo" va o'quvchilar almashinuv dasturlari. Turli YUNESKO nashrlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, tarmoq maktablari orasida tarqatildi: "butunjahon merosi yoshlar qo'lida", "Bag'rikenglik tinchlik sari olg'a qadam", "Demokratiya: 80 savolga 80 javob", "Har bir inson...".

Birlashgan maktablar tarmog'iga a'zo Zarafshon shahridagi 1-sonli ixtisoslashgan maktabi YUNESKO Mondialogo maktab tanlovida g'olib deb topildi (2006-yil). Toshkent shahridagi 17-son maktabi "Barqaror taraqqiyot ta'limi" mavzusidagi YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi tanlovida g'olib deb topildi, maxsus faxriy yorliq bilan taqdirlandi(2006-yil).

"Suv va tabiiy manbalarni boshqarish" (Toshkent shahridagi 17-sonlimaktabi) va "Sahroda oazis yaratish"(Zarafshon shahridagi 1-sonli ixtisoslashgan maktabi) loyihasi Osiyo va Tinch okeani mintaqasida barqaror taraqqiyot ta'limi doirasida 2009-yilning eng ilg'or tajriba loyihalari deb topildi.

O'zbekiston ta'lim tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish maqsadida bir qator o'quv seminarlar o'tkazildi:

- YUNESKOva UNISEF qo'shma FRESH loyihasi doirasidagi "Ta'lim muassasalarida sanitariya va gigeniya" mavzusidagi o'quv seminarlar (2005-yil noyabr, 2007-yil sentabr oylarida);

- "Ta'limda boshqaruv va axborot tizimlari" mavzusidagi milliy seminar (2005-yil dekabr);

- Xalq ta'limi vazirligi, YUNESKOning Toshkentdagi vakolatxonasi, UNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Ta'lim barcha uchun" harakat dasturining o'rta muddatli tahlili bo'yicha milliy forum (2006-yil 18-avgust);

- Osiyo va Tinch okeani mintaqasi YUNESKO madaniy markazi bilna hamkorlikda Inklyuziv ta'limni joriy etish uchun bolalar bog'chasiva o'rtya ta'lim maktablarida sinov guruhlarini shakillantirish" bo'yicha o'quv kurslari (2006-2007yillar). Loyihaning davomi sifatida 2007-yilning 10-12-sentabr kunlari Toshkent shahrida inklyuziv ta'lim bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy seminari YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi va Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda):

- OITV/OITSni oldini olish bo'yicha "Tengdosh tengdoshga" usulida milliy o'quv seminar (2007-yilning aprel-may oylarida).

Maktabdan tashqari ta'lim

1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida Uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi. Ushbu islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yildan boshlab Jamoat ta'lim markazlari (JTM) nomli YUNESKO loyihasi O'zbekistonda Amalga oshirilishi boshlandi. Loyiha YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi "Ta'lim barcha uchun" dasturi doirasida qo'llab-quvvatlangan edi. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining 9 viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Birlashgan maktablar tarmog'iga a'zo bo'lgan muassasalar qoshida 10 ta Jamoat ta'lim markazlari tashkil etildi.

YUNESKOning Bankokdagi vakolatxonasi hamda Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda "aholining imkoniyatlarini kengaytirish uchun axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish", "Hayot ko'nikmalari ta'limi" va "OITV va OITSni oldini olish bo'yicha ta'lim dasturlari" 1999-2006-yillarda amalga oshirildi.³² Loyihalar doirasida multimedia o'quv dasturlari yaratildi va tegishli muassasalarga tarqatildi, hamda ushbu mavzuda milliy anjumanlar tashkil etildi.

2004-2005-yil YUNESKO Qatnashuv dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida Katta yoshdagilar ta'limi markazini tashkil etish qo'llab-quvvatlandi. Markaz tomonidan, 2004-2007-yillarda, katta yoshdagilar uchun o'quv dasturlari tashkil etildi va to'rtta o'quv qo'llanma ishlab chiqildi va nashr etildi.

³² <http://www/unesco.org/general/eng/about/history/members/shtml>.

YUNESKO kafedralari

YUNESKO kafedralari dasturi 1991-yilda boshlangan. Mazkur dasturning asosiy maqsadi- oliy ta'lim muassasalarida maxsus tadqiqotlarni rivojlantirish hamda xalqaro miqyosida mazkur fan sohasida mutaxasislarning tajriba hozirgi paytda, Milliykomissiya ko'magida quyidagi 10 ta YUNESKO kafedrasi O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalarida maxsus tadqiqotlarni rivojlantirish hamda xalqaro miqyosda mazkur fan sohasida mutaxasislarning bilim va tajriba almashinuvini qullab quvvatlaydi.

1. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi "Fizika va astranomiya" YUNESKO kafedrasi (1998y.);
2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi "Inson huquqlari, tinchlik, demokratiya, bag'rikenglik va xalqaro hamjihatlik" YUNESKO kafedrasi (1998y.);
3. Samarqand Davlat me'morchilik qurilish instituti qoshidagi "Tarixiy markazlarni saqlash va boshqarish" YUNESKO kafedrasi(1999y.);
4. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshidagi "Avtomatlashgan axbarot texnologiyalari" nomli YUNESKO kafedrasi (1999y.);
5. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti qoshidagi "Fuqarolik qadriyatlar ta'limi" YUNESKO kafedrasi (1999y.);
6. Toshkent islom universiteti qoshidagi Jahon dinlarini qiyosiy tadqiqoti" YUNESKO kafedrasi (1999y.);
7. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot instituti qoshidagi "An'anaviy tibbiyot" YUNESKO kafedrasi (2000y.);
8. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi "Ekologik kimyo" YUNESKO kafedrasi (2003y.);
9. Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti qoshidagi "San'at boshqaruvi va marketingi" YUNESKO kafedrasi (2004y.);

10. Toshkentdagi xalqaro Vestminster universiteti qoshidagi “Blimlar iqtisodiyoti” YUNESKO kafedrasi (2006y.);

3.2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston taraqqiyotiga YUNESKONing qo'shgan hissasi.

Istiqlol yillarida o'zaro hamkorlik natijasida qator sohalarda ijobiy natijalarga erishdik. Bunda esa YUNESKONing dasturlar doirasida amalga oshirgan ishlari alohida ahamiyatga ega. Quyida O'zbekiston taraqqiyotiga YUNESKONing qo'shgan hissasi haqida axborot kommunikatsiya bo'limi tarqatgan axborotlar ustida fikr yuritamiz.

YUNESKONing qo'llab-quvvatlashi bilan o'tkazilgan tadqiqot o'tish davrida O'zbekistonda oilaning rolini tahlil qiladi.

1 noyabr 2010

«O'zbekistonda jamiyat transformatsiyasi sharoitlarida oila munosabatlari» mavzusidagi ma'ruza O'zbekistonda 2010-yilda e'lon qilindi. BMTning aholishunoslik sohasidagi jamg'armasi (YUNESKO) va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti 2009–2010- yillarda umummilliy tadqiqotlar o'tkazilgandan keyin ushbu ma'ruzani birgalikda chop etdi.

1991 -yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi sohasida mamlakatda muhim tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Yangi dalillar ayollar va erkaklar, qariyalar va yosh avlod oldiga yangi-yangi muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda, biroq madaniy an'analar o'zbek oilalari a'zolarining jinsi va yoshiga bog'liq ravishda, ularning majburiyatlari va tutgan o'rniga avvalgidek jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

YUNESKO ko'magida o'tkazilgan tadqiqot davomida oilaviy munosabatlar, oila tarkibi va yoshlarning bolalar tug'ilishi to'g'risidagi fikrlari, oila byudjeti va daromadlar taqsimoti, shuningdek oilaga tegishli qarorlar qabul qilishda erkak va ayollarning, ota-ona va bolalarning roli uzoq vaqtdan buyon birinchi marta batafsil ko'rib chiqildi. Tadqiqot davomida ilk bor jinsiga bog'liq ravishda

tahqirlash va zo'rlash kabi qaltis masalalar va oilada bu kabi mojarolarning tinch yo'l bilan hal qilish usullari tahlil qilindi.

Tadqiqot Toshkent shahrida, Qoraqalpog'iston Respublikasida va mamlakatning 12 viloyatida o'tkazildi. Umuman olganda, unda 2200 uy, taxminan 3300 oila ishtirok etgan. Tadqiqot tashkilotchilari unda shahar va qishloq oilalaridan teng vakillar qatnashishini ta'minlagan.

Tadqiqot natijalari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlaridan hamda BMT Taraqqiyot dasturi va Jahon banki singari xalqaro tashkilotlarning hisobotlaridan foydalanildi.³³

Tadqiqot davomida O'zbekistonda oilaning tarkibi va roli to'g'risida qiziqarli dalillar aniqlandi. Jumladan, tadqiqot natijalariga muvofiq ijtimoiy institut sifatida oilaning ahamiyati oldingi tuzum yemirilgandan va yangi iqtisodiy modelga o'tilgandan keyin pasaymadi. Respondentlarning 90 foizi ro'yxatdan o'tkazilgan nikohda ekanliklarini, 1 foizdan kam fuqarolik nikohidaligini va faqat 2 foizi ajralishganini qayd etdilar. Bunday ma'lumotlar oila rasmiy institutining mustahkam ekanligini tasdiqlaydi. Bu Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari va Janubiy Kavkaz mamlakatlari uchun ham xosdir.

Tadqiqot natijalari er-xotinning reproduktiv xulq-atvor masalalarini idrok etishida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatganligi qiziqarlidir. Oilada bolalar soni 3–4 ta bo'lishi kerak deb hisoblaydigan katta yoshli respodentlar (30 yosh va undan katta)dan farqli ravishda, yosh avlod oilada 2 ta farzand bo'lishini eng maqbul variant deb hisoblaydi. Dunyoqarashdagi bunday siljishni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi o'zgarishlar orqali, ya'ni yosh oilalar «oz bo'lsa ham soz bo'lsin» g'oyasiga amal qilishlari orqali tushuntirish mumkin.

³³ <http://www/unv.uzbekistan.html>

Tadqiqotlar orqali katta yoshlilar bilan yosh avlod tomonidan ayollar va erkaklarning roli va majburiyatlari bilan bog‘liq masalalarni qabul qilish yuzasidan jiddiy tafovutlar aniqlanmadi.

Respondentlarning deyarli yarmi qaror qabul qilishda va daromadlarni shakllantirishda erkak ustunlik qiladigan, ayollarga esa uy bilan bog‘liq majburiyatlar, bolalar tarbiyasi va oilaning keksa a‘zolarini parvarish qilish to‘liq yuklanadigan oilaning «patriarxal» modelini afzal deb biladi. So‘rab chiqilganlarning faqat 7 foizi o‘z intilishlari hamda ma‘lumot olish va lavozimda ko‘tarilish imkoniyatlariga nisbatan er-xotin teng huquqqa ega bo‘lishlari, ularning ota-onalari yoki uy xodimlari bolalarni parvarish qilish va ro‘zg‘orni tashkil etishda yordam berishlari mumkin, deb hisoblaydi. Afsuski, past daromad oluvchi oilalarda ayollar yelkasiga yuklanayotgan ro‘zg‘or majburiyatlari yuki ortmoqda. Bunday oilalarda oila byudjetini qo‘llab-quvvatlash, xarid qilish va uydagi mayda ta‘mirlash ishlari bilan ham ayollarning shug‘ullanishiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tadqiqot shuningdek ayollar (64% holat) va bolalar (23% holat) ko‘pchilik hollarda zo‘ravonlikdan azob chekishini ko‘rsatdi. Ayni vaqtda 69% holatda erkaklar tajovuzkor bo‘ladilar. Barcha respondentlarning amalda yarmi u yoki bu darajada maishiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lganliklarini ma‘lum qildilar. 40 foiz holatda maishiy va iqtisodiy xususiyat, masalan uy majburiyatlarini bajarmaslik yoki muhim oilaviy masalalar bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilinishi zo‘ravonlikka sabab bo‘lgan. Zo‘ravonlikdan jabrlanganlarning 79 foizi yordam so‘rab militsiyaning mahalliy bo‘limlariga, 19 foizi mahalla kengashiga murojaat qilgan, 2 foizi esa moliyaviy bog‘liqligi (14%), qo‘rquv (21%), ajralish bilan tahdid qilish (27%) va sharmada bo‘lmaslik (37%) tufayli hech qayerga murojaat qilmaganligini ma‘lum qildi.

Tadqiqot natijalari tahliliga qo‘shimcha sifatida ma‘ruzada oila institutini qo‘llab-quvvatlashda ijtimoiy dasturlarni yanada mustahkamlash borasida tavsiyalar berilgan. Bular yosh oilalarga ipoteka krediti berish, oilaviy biznesni

qo'llab-quvvatlash, ishlaydigan ayollar uchun qulay shart-sharoilar yaratish kabilardir.

Aholi farovonligini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va tavsiyalarni ishlab chiqish, ijtimoiy islohotlarning barqarorligini ta'minlash va barqaror rivojlanishga ko'maklashish maqsadida 2008 yilda asos solingan Ijtimoiy tadqiqotlar instituti ushbu tashabbusda UNESCOga sherik bo'ldi. Institut ishtirokida so'rov natijalari bir qancha davlat muassasalariga tarqatildi va milliy dasturlarni ishlab chiqishda eng avvalo Vazirlar Mahkamasi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan foydalanildi. UNESCOning asosiy sherkilaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi ma'ruzani ma'qulladi va uning ma'lumotlaridan o'zining xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga bag'ishlangan tashabbuslarida foydalanish niyatini bildirdi.

Aholishunoslik va taraqqiyot ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish bo'yicha hukumatning qo'llab-quvvatlashi YUNESKO uchun faoliyatning tub yo'nalishi hisoblanadi. Mamlakat aholisi, demografik xususiyatlar, hayot sharoitlari va moddiy resurslar to'g'risidagi ma'lumotlar rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hayotiy muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot O'zbekistondagi oilaviy masalalar bo'yicha ma'lumotlarni, shu jumladan gender ma'lumotlar bo'yicha nuqsonlarni to'ldirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda yashayotgan ayollarning hayotiy holatini baholash va ular haq-huquqlarining amalda qanday taminlanayotganligini aniqlashdan iborat bo'lgan. Bu kabi tadqiqotlar tahliliy natijalari asosida kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan tegishli qarorlar qbul qilinishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Yana bir asosiy vazifa esa, olida erkak va ayollarning teng huquqlilikka asoslangan turmushidir. Bu yo'lda yechimini kutayotgan muammolar ko'pligi, tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirish va shu yo'l bilan muammoga atroflicha to'xtalish imkoniyatini vujudga keltirish lozimligini uqtiradi.

YUNESKO O'zbekistonda kontratseptiv vositalar logistikasi va ta'minoti boshqaruvi uchun zamonaviy axborot tizimini rivojlantirmoqda.

1 dekabr 2011

O'zbekiston aholisi 30 milliondan ortiq bo'lib, Markaziy Osiyoda aholi eng zich joylashgan mamlakat hisoblanadi. 90- yillarning boshida mamlakatda tug'ilish va abortlarning eng yuqori ko'rsatkichlari qayd qilingan. Bu esa ma'lum darajada aholining kutilmagan homiladorlikni oldini olishning zamonaviy usullariga to'liq ega emasligi natijasidir.



1993-yildan boshlab, Sog'liqni saqlash vazirligi rahbarligi ostida amalga oshirilayotgan milliy dasturlar doirasida tug'ruqlar oralig'ini kuzatib borish, yuqori darajadagi xavf bilan bolalar tug'ilishini kamaytirish va istalmagan homiladorlikni oldini olish maqsadlarida kontratseptivlardan foydalanish targ'ib qilinmoqda. Hukumat tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar va YUNESKO, Germaniya Tiklanish banki (KFW) va boshqa xalqaro hamkorlar tomonidan ko'rsatilayotgan yordamlar tufayli mamlakatda barcha turdagi zamonaviy kontratseptivlardan foydalanishga muvaffaq bo'lindi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlarga muvofiq,

zamonaviy kontratseptiv vositalardan foydalanish darajasi mamlakat bo'yicha deyarli 60% ga yetdi.

YUNESKO O'zbekistonda o'z faoliyatini boshlagunga qadar kontratseptiv vositalar logistikasi va boshqaruvining muvofiq tizimi mavjud bo'lmagan edi. Ushbu vositalarni prognoz qilish va taqsimlash eskirgan usul va metodika asosida markaz doirasida amalga oshirilar edi.

2005-yildan boshlab YUNESKO tomonidan O'zbekistonda kontratseptiv vositalar logistikasi va boshqaruvining (LMIS) yangi axborot tizimini tashkil etish ishlariga yordam berish harakatlari boshlab yuborildi.

Kontratseptiv vositalarga talabnomalarni e'tiborga olib ish ko'ruvchi «ehtiyotlar asosida taqsimot tizimi» ishlab chiqildi. Shuningdek demografik ko'rsatkichlarga asoslangan oldingi tizimdan farq qilgan holda iste'mol darajasi asosida ehtiyotlarni baholash metodologiyasi joriy etildi. Bundan tashqari, barcha pog'onadagi kontratseptiv vositalarning ehtiyotli zaxiralarini saqlash qonunlashtirib qo'yildi, ularni saqlash amaliyoti takomillashtirildi hamda bir pog'onadagi muassasalar o'rtasida o'zaro almashinuv imkoniyati ta'minlab berildi.

Yangi tizim ilk bor O'zbekistonning aholi eng zich joylashgan mintaqasi hisoblanmish Farg'ona viloyatida amalga oshirildi. Loyiha doirasida kontratseptiv vositalar bilan ta'minlash ishlari yo'lga qo'yildi va 2000 dan ziyod tibbiyot xodimlari uchun bazaviy treninglar tashkil etildi.

Tizimni Farg'ona viloyatida sinovdan o'tkazish bo'yicha erishilgan muvaffaqiyatli natijalar uni butun mamlakat bo'ylab keng miqyoslarda joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, Sog'liqni saqlash vazirligining 2011-yil apreldagi buyrug'iga binoan, mamlakatda kontratseptiv vositalar logistikasi va boshqaruvining yangi tizimi joriy etildi. U kontratseptiv vositalar iste'mol asosida taqsimlanishini nazarda tutadi, shuningdek kontratseptiv vositalarning yetarlicha zaxirasi saqlanishini qonuniylashtiradi.

Shundan buyon yangi tizimni qo'llashning puxta monitoringi olib borilmoqda. Rasmiy statistika ma'lumotlariga muvofiq deyarli 100% taqsimlash punktlarida endilikda zamonaviy kontratsepsiyaning barcha usullari taklif etilmoqda, logistika va boshqaruv axborot tizimining ishlashi uchun buyurtmalar va hisobot berishning yangi shakllaridan foydalanilmoqda, shuningdek birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida zaxiralar darajasi oshirildi.

Bundan tashqari, zaxiralarning yetarlicha darajasi zarurligi hisobga olingan holda hukumat 2011- yilda davlat byudjeti hisobidan taxminan 200000 AQSH dollarilik kontratseptiv vositalarni xarid qildi. Bu mamlakat rahbariyatining ushbu ishda qatnashishi ulushini va uni yoqlashini isbot qiladi.³⁴

YUNESKO muvaffaqiyatli natijalarga asoslangan holda endilikda milliy hukumat bilan hamkorlikda Farg'ona viloyatida «CHANNEL» logistikasi va boshqaruvining kompyuterlashtirilgan axborot tizimini joriy etishga kirishdi.

Yuqorida takidlangan amaliy ish asosida O'zbekistonda yashayotgan ayollarning tug'riq bilan bog'liq muammolarini hal etish va shu orqali ular sog'lig'ining taminlanish darajasini yuqoriga ko'tarishdan iboratdir. Butun dunyoda muammoga aylangan aynan xotin-qizlar sog'ligi bilan bog'liq salbiy holatlarning kuzatilayotgani, muammoga yanada chuqurroq to'xtalish lozimligini keltirib chiqarmoqda. Xalqaro hamjamiyatlar diqqat-e'tiborini ham bunga qaratayotganligimiz yetarlicha asoslarga tayangan holda olib borilmoqda. Natijada esa, minglab ayollar solig'ining ijobiy holatga olib kelinishiga erishilmoqda. Tug'ilishi kuzatilayotgan farzandlarimizning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishiga mustahkam poydevor qo'yilmoqda.

³⁴ <http://www/Tashkent.unesco.org>

YUNESKOqo'llab-quvvatlayotgan yoshlar ta'lim tarmog'i yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi

1 dekabr 2013

«Mening Y-PEER tarmog'ida birinchi yil bo'lishim va butun O'zbekistondan kelgan faollar bilan birinchi marta uchrashib turishim. Mana shu uch kun ichida bir-birimizni bilib olishimiz tajriba almashinish, jamoaviy muhokamalarda ishtirok etish va noyob g'oyalar topishimiz kishini hayron qoldiradi».



Bu Samarqandlik Mohigul Jo'raevaning taassurotlari. Mohigul 20 yoshda, u Y-PEER tarmog'ining nisbatan yangi a'zosi bo'lsa-da, u Samarqand shahrida va boshqa mintaqalarda tengdoshlari orasida OIV/OITSning oldini olish, sog'lom turmush tarzini va reproduktiv salomatlikni targ'ib qilish bo'yicha bir qator treninglar o'tkazishga ulgurdi. O'zbekistonda besh yil oldin asos solingan paytdan boshlab Y-PEER tarmog'i o'sib bormoqda, o'z saflariga tobora ko'proq volonterlarni qabul qilmoqda.

YUNESKOko'magida Y-PEER yoki «teng tengi bilan» tamoyili asosidagi yoshlar ta'lim tarmog'i yoshlarga ularning o'smirlar va reproduktiv salomatlik masalalari bo'yicha bilimlarini oshirishga yordam beradi. Global miqyosda Y-

PEER 500 dan ziyod notijorat va davlat muassasalarini birlashtirgan tarmoq bo'lib, reproduktiv salomatlik va huquqlarni muhofaza qilish bilan bog'liq juda ko'p sohalarda faoliyat yurituvchi minglab yoshlar uning a'zolari hisoblanadi.

Tarmoq o'z ishini O'zbekistonda 2005-yilda boshlagan, hozirgi vaqtda u mamlakat miqyosida 350 dan ziyod ko'ngillilarni birlashtiradi. Tarmoqning yoshlar bilan va yoshlar uchun ishi "teng tengi bilan"ga o'qitish tamoyili yordamida va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishda yoshlarga imkoniyat berish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. O'zbekistonda tashkil etilgan paytidan boshlab tarmoq o'sib bormoqda, o'z safiga tobora ko'proq faollar va ko'ngillilarni qabul qilmoqda. Umuman olganda, Y-PEER tarmog'i faollari har yili taxminan 10000 yoshni sog'lom turmush tarzi masalalariga oid axborot sessiyalari bilan qamrab oladi.

Tashabbus juda noyob, sababi u «teng tengi bilan» yondoshuvini qo'llash tufayli sog'lom turmush tarzi va oila masalalari bo'yicha rasmiy ta'limga qo'shimcha sifatida tavsiflanadi. Mavzuli masalalarga o'qitishdan tashqari Y-PEER tarmog'i loyihalarni boshqarish, jamoa bo'lib ishlash, yoshlarning katta yoshdagilar bilan hamkorligi va zaif guruhlar bilan ishlash singari sohalarda yoshlarning bilim darajasi oshishiga ko'maklashadi.

«Biz Y-PEER tarmog'i mamlakatda shu qadar mashhur va faol ekanidan juda mamnunmiz, deydi YUNESKONing O'zbekistondagi vakili Kristo Pikkat, — Tarmoq mamlakat aholisining 65%ini tashkil etuvchi yoshlar bilan ish olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shunisi e'tiborga loyiqki, Y-PEER faollarining faoliyati doirasi yanada o'sdi va hozirga kelib u maktablarda o'tkaziladigan treninglar va axborot sessiyalari bilan chegaralanib qolmay, balki mustaqil tashkillashtirilgan axborot kampaniyalarini ham o'z ichiga oladi. Bu esa

o'z navbatida, Y-PEER tarmog'i keyingi yillarda mamlakatdagi yetakchi yoshlar harakatlaridan biri sifatida rivojlanib borayotganidan dalolat beradi».

.....
Bu kabi ishlarning amalga oshirilishi natijasida yoshlar qatlamining huquqiy savodxonligini oshirishga erishish mumkin. Bu orqali esa ularning kelgusidagi shaxsiy faoliyatida huquqiy masalarga keng mushohada bilan yondoshgan holda, yechim topishiga olib keladi.

15-fevral 2014-yil

O'zbekistonda Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi tashabbusi – “Orol fojiasidan zarar ko'rgan aholi turmush tarzini yaxshilash” Qo'shma Dasturining taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbirda dasturning milliy hamkorlari, shahar va tuman hokimiyat vakillari, mahalliy uyushmalar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar. Taqdimot ishtirokchilari Dasturning asosiy faoliyat yo'nalishlarini muhokama qildilar, hamda uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'z tavsiyalarini bildirdilar. Orol dengizi, Markaziy Osiyoning o'rtasida joylashgan yopiq suv havzasi hisoblanib, o'tmishda yirikligi jihatdan dunyoda to'rtinchi o'rin egallab kelgan. Ammo bugunda Orol dengizi o'zining oldingi maydonidan faqatgina 30% tashkil etadi. Albatta, mazkur ekologik halokat hududning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy muhofaza hamda aholining turmush tarziga salbiy ta'sir o'tkazadi. Alohida ta'kidlash lozim, ohirgi 15-20 yilda mintaqada BMT Taraqqiyot Dasturi hamda Jahon Banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan keskin hamkorlikda amalga oshirilgan tashabbuslar ushbu hududdagi vaziyatni yumshatishga yordam berdi. Ammo, Mo'ynoq, Shumanay va Kanlikul kabi eng uzoq joylashgan tumanlar aholisining turmush tarzini yaxshilash alohida ahamiyat kasb etadi.

Orolbo'yiga 2010-yil aprelda bo'lib o'tgan tashrifi chog'ida BMT Bosh Kotibi janob Pan Ki Moon ushbu fojيانing inson xavfsizligiga bo'lgan salbiy ta'sirini

ko`zda tutib uni “Dunyoning eng qattiq ekologik fojealaridan biri” deb nomladi. Mazkur tashrif oqibatida, qo`shimcha mablag` manbalarni ishlab chiqish, sog`liqni-saqlash tizmini hamda ijtimoiy infratuzilmalarni takomillashtirish orqali ushbu hududda istiqomat qiluvchi aholining farovonligini oshirish maqsadida Qo`shma Dastur ishlab chiqildi. Dastur O`zbekistonda BMTning 5 agentligining say-harakatlarini birlashtiradi—jumladan, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), BMTning Ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha tashkiloti (UNESCO), Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti (WHO), BMTning Aholishunoslik jamg`armasi (UNE) hamda BMT Ko`ngillilari (UNV).

12-fevral 2015-yil

.....
“Sog`lom muhitda yashash” mazkur Dastur, O`zbekiston Respublikasi hukumati bilan yaqin hamkorlikda ishlab chiqilgan bo`lib, Orolbo`yi fojeasining oqibatlarini bartaraf etishga hamda ushbu hududda istiqomat qiluvchi aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarining amalga oshirilishiga ko`mak berish maqsadi bilan ishga tushurilgan. Dastur doirasida mahalliy uyushmalarga aholi keng qatlamlarini mahalliy taraqqiyot rejalarini amalga oshirish orqali sifatli ichimlik suvi va gaz kabi infratuzilmalari bilan ta`minlash ko`zda tutiladi. Bundan tashqari, Dastur mahalliy tadbirkorlar va dehqonlar uchun eng ilg`or qishloq ho`jaligi va chorvachilik tamoillarini tadbqiq etish orqali yangi mablag` manbalarni yaratish, hamda hunarmandchilik va turizmning rivojlanishi orqali ayollar va yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga ko`mak berishni nazarda tutadi.

Qo`shma Dastur sog`liqni-saqlash hodimlarining reproduktiv salomatlik mavzusida bilim va ko`nikmalarini oshirish, hamda ko`ngillilarni jalb qilish orqali yoshlar va xotin-qizlarning OIV va OITS kabi infeksiyon kasalliklar haqidagi bilimlarini oshirish vositasida sog`liqni-saqlash tizimini barqarorlashtirishga

qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan tashabbuslarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, barcha milliy hamkorlarni ish jarayoniga jalb etib ular bilan bevosita muloqotda bo`lish lozim. Shuning uchun, Dastur doirasida Regional va uchta mahlliy hukumat organlarining, aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy va ekologik xavfsizligi hamda ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish borasida salohiyatini mustahkamlash rejalashtirilgan.

Buni alohida ta`kidlash kerakki, Qo`shma Dastur faoliyati Orol dengizi hudida istiqomat qiluvchi aholining inson xavfsizligini samarali boshqarish tamoyillarini kiritish, daromadlarni o`shishni ta`minlash, hamda sog`liqni saqlash va ekologik xavfsizlikni barqarorlashtirish orqali ta`minlashga qaratilgan. Qo`shma dasturning ushbu say`-harakatlari uchun BMTning Inson xavfsizligi bo`yicha Trast fondi tomonidan 3.8 million AQSh dollari ajratilgan.

Orol dengizi hududida istiqomat qilayotgan aholi turmush darajasini himoyalash va ular hayoti uchun sog`lom muhitni taminlashga qaratilgan ushbu Dastur faoliyati davomida aholining barcha qatlamlarini qamrab olayotganligi ijobiy holatdir. Negaki, endilikda bu hududda yashovchi insonlar hayoti uchun katta havflarning vujudga kelganligi butun dunyo ahlini kelajak uchun qayg`urish lozim ekanligini uqtirmoqda.

Sog`lom muhitda yashash huquqi barchamiz uchun bir xilda ekanligi bu yo`ldagi amaliy ishlar ko`lamini yanada kengaytirishga chaqiradi. Har doim ham ijobiy holat barcha joylarda barqaror emasligi esa, tizimli ravishda amaliy ishlarni bosqichma-bosqich yo`lga qo`yishni talab qilmoqda. Endilikda Orol dengizi butun O`rta Osiyo aholisi hayotiga havf solayotganligi bu hududdagi davlatlarning hamkorlikda ishlashlarini talab qilmoqda. Xalqaro munosabatlarni muntazam yo`lga qo`yish va bu orqali uzoqni ko`zlab qarorlar qabul qilinishiga erishish bugungi kunimizda dolzarb masalaga aylandi.

02/03/2015

2 mart juma kuni BMTning O'zbekistondagi agentliklari O'zbekiston ushbu nufuzli xalqaro tashkilotga a'zo bo'lganligining 23 yilligini nishonlaydi va BMTning Axborot markazi tomonidan “G'amkorlikka 23 yil” deb nomlanuvchi fotoko'rgazma tashkil etiladi. O'zbekiston tarixi davlat muzeyida o'tkaziladigan ko'rgazmada 23 yil davomidagi hamkorlik BMTning bugun O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan agentliklari: BMT Ayollar tashkiloti, Jahon banki, YUNISEF, YUNESKO, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi, YUNEYDS, BMT Taraqqiyot dasturi, YUNODK va BMT Ko'ngillilar tashkiloti tomonidan to'plangan fotosuratlar orqali aks ettiriladi. Ko'rgazmaga taklif etilgan faxriy mehmonlar orasida BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Anita Nirodi, O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Shavkat Solixov ham bor.

O'zbekiston BMT ga 1992-yilning 2-martida a'zo bo'lgan. Shu vaqtdan buyon mamlakat taraqqiyotida BMT va uning turli tashkilotlari muhim rol o'ynamoqda. Qisqa vaqt ichida bu yerda BMTning barcha agentliklari faoliyat yurita boshladi. 2000-yili BMTning Nyu-York shahridagi qarorgohida o'tkazilgan Mingyillik sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Mingyillik rivojlanish maqsadlari dasturida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishni ko'zlagan dunyodagi 150 ta davlat rahbarlari safiga qo'shildi. “G'amkorlikka 23 yil” deb nomlanuvchi ko'rgazma bu yo'nalishda va boshqa loyihalar bo'yicha BMT hamda O'zbekiston hamkorligida amalga oshirilgan barcha ishlarni o'zida mujassam etadi. BMT mutaxassislari ayni chog'da ijtimoiy-iqtisodiy hayot, madaniyat, davlat boshqaruvchi, ekologiya va boshqa ko'plab yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqda, ammo maqsad yagona, ya'ni mamlakatimiz va butun dunyoda aholi farovonligi, barqaror taraqqiyotni ta'minlashdir. 23 yil mobaynida amalga oshirilgan keng ko'lamdagi ishlar bilan fotoko'rgazma davomida batafsil tanishish imkoni bo'ldi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad BMT tarkibidagi barcha rasmiy tashkilotlarning O'zbekistondagi amaliy ishlari bilan aholini tanishtirishdan iborat bo'lgan. Xalqaro maqomdagi tashkilotning teng huquqli a'zo bo'lgan O'zbekiston Respublikasining bugungi kundagi amalga oshirayotgan keng tarmoqli xalqaro aloqalarining barchasi, shu o'lkada yashayotgan insonlar haq-huqularini taminlash, ijtimoiy jihatdan himoya qilish va ular hayotini yanada yaxshilashga qaratilgan.

24/05/2011

BMTTD boshqaruvchisi Helen Klark O'zbekistonga qilingan uch kunlik tashrifini yakunladi. U kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bilan uchrashib, uchrashuvda Prezident BMTTDning O'zbekiston rivoji yo'lidagi faoliyatini qo'llab quvvatlashini e'tirof etdi.

O'zbekistonga tashrif davomida Helen Klark shuningdek Bosh Vazir Birinchi O'rinbosari va Moliya Vaziri Rustam Azimov, Bosh Vazir O'rinbosari va Tashqi Ishlar Vaziri Elyor G'aniyev, Tashqi Iqtisodiy Aloqalar, Moliya va Savdo Vaziri Galina Saidova, O'zbekistondagi BMT vakillari, rivojlanish bo'yicha hamkorlar, Nodavlat Tashkilotlaridagi va madaniyat va san'at sohasida faoliyat yuritayotgan ayollar bilan uchrashdi.

BMTTD O'zbekistonda turmush tarzini oshirish, atrof muhit va energetika va samarali boshqaruv masalalari bo'yicha faoliyat olib boradi. Ushbu tashrif Helen Klark uchun Prezident va yetakchi vazirlar bilan birgalikda BMTTDning faoliyatini muhokama qilish, va BMTTD ishtirok etayotgan bir necha tashabbuslarga voqif bo'lish uchun hizmat qildi.

Helen Klark Toshkent shahridagi Sergeli tumanida joylashgan BMTTDning "Yagona Oyna Markazi" deb nomlangan va aholiga onlayn tizimida hizmatlar ko'rsatadigan markaziga tashrif buyurdi. Ushbu markaz ko'p vaqt va qog'oz ishlarini talab etadigan tizim o'rniga onlayn tizimida ish olib borib, go'daklarni

bolalar bog'chasiga joylashdan tortib nafaqa olish uchun ariza topshirish, ishsizlik nafaqasi va yangi korhonalarni ro'yhatdan o'tkazish kabi ishlar bilan shug'ullanadi.

Hukumat endilikda bu tizimni butun O'zbekiston hududida tatbiq etishga qaror qildi.

“Avvallari men barcha hujjatlarni birgalikda olib yurardim. Hozir ushbu markaz xizmatlardan foydalanishni ancha yengillashtirdi” – deb bir ayol markazda Helen Klarkka murojaat qildi. “Men BMTTDning kompyuter kurslariga qatnashdim va men hozir sertifikatga ega bo'ldim. Bir o'ylab ko'ring, mening yoshim 68 da va men kompyuter kursida ishtirok etdim! Endilikda men nabiralarimga men sizlarning buvingizman va kompyuterdan qanday foydalanishni bilaman deb aytaman!”

Samarqand shahrida Helen Klark BMTTD tomonidan qo'llab quvvatlanadigan “ijtimoiy korhona”ga tashrif buyurdi va bu yerda mahalliy korxonalar bilan hamkorlikda oyoq kiyim tikish kasbini o'zlashtirayotgan nogiron yoshlar bilan tanishdi. Ushbu tashabbus doirasida video qo'llanmalar ham ishlab chiqilgan. Shuningdek O'zbekistonning to'rt viloyatida BMTTD bilan hamkorlikda 9 ta ijtimoiy korhona tashkil qilindi.

Helen Klark shuningdek qishloq tibbiy klinikasiga tashrif buyurib, BMTTD tomonidan yaratilgan zahiraviy elektr tizimini kuzatdi. Ushbu tizim elektr ta'minoti bo'lmagan vaqtda ham klinikaning to'liq faoliyat olib borishiga imkon beradi va bunday tizimsiz, emlash vositalari va tekshiruv natijalari noto'g'ri ko'rsatkichlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonga qilingan ushbu tashrif Boshqaruvchining Markaiy Osiyoga uyushtirgan safarining yakuni bo'lib ushbu safarda shuningdek Turkmaniston, Qirgiziston, Qozog'iston va Tojikistonga ham tashrif buyurildi.

Tashrif davomida BMTTD ning o'lkamizdagi faoliyatining natijalari tahlil qilingan. Kelgusida aynan qaysi sohalarga e'tibor qaratish lozimligi ham misollar orqali o'rganilgan. Nogiron yoshlarning ish bilan taminlanishiga qaratilgan

loyihalarni Respublikaning barcha hududlarida ayniqsa chekka tumanlarda yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Bu bilan ular jamiyatning teng huquqli a'zosi ekanligini anglatish va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish vazifa qilib belgilangan.

25/09/2014

Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining respublika va uchta tuman bo'limlarining 20 ta vakili "Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari statistikasi va DevInfo ma'lumotlar bazasini boshqarish" mavzusidagi intensiv tayyorgarlik kurslarida o'qitildi. Trening BMTning insoniyat xavfsizligi bo'yicha Maqsadli Jamg'armasining moliyaviy ko'magida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan hamkorlikda BMTning O'zbekistondagi beshta agentligi, xususan, BMTTD, YUNESKO, BST va BMT ko'ngillilari tomonidan amalga oshirilayotgan BMTning "Orol dengizi inqirozidan aziyat chekkan aholi turmush faoliyatini ta'minlash" Hamkorlikdagi Dasturi tomonidan tashkil etildi. 2000-yildagi Mingyillik sammitida 189 mamlakat rahbarlari qashshoqlikka qarshi kurash, asosiy xizmat turlaridan foydalanishni yaxshilash, kasalliklarning tarqalishini kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarini birlashtirish va 2015- yilgacha rivojlanishning sakkizta maqsadini belgilab olishdi.

O'zbekiston Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM) dunyo miqyosida dolzarbligini inobatga olgan holda, Respublika Hukumati Mingyillik Deklaratsiyasini imzolab, MRM bo'yicha milliy vazifalar va ko'rsatkichlarni ishlab chiqdi. Ushbu ko'rsatkichlar Farovonlikni oshirish Strategiyasi (FOS) singari davlat xujjatlari bilan yaxlit holatga keltirildi. Natijada, 10 yil davomida bandlikni ta'minlash, infratuzilmani va ijtimoiy sohani rivojlantirish, onalar o'limini qisqartirish, ta'limga huquq berishni ta'minlash sohalarida va 2010-yilda BMT Sammitida Prezident I.Karimov tomonidan taqdim etilgan boshqa yutuqlarga erishildi. Biroq, MRM ga erishishni tezlashtirish uchun BMT Bosh kotibi Pan Gi-

Mun tomonidan taqdim etilgan Global rejaga muvofiq, joylarda, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida milliy MRMning monitoring va yutuqlarni baholash tizimlarini yaratish zarurdir. Shu sababdan, BMT Hamkorlik Dasturi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi o‘rta bo‘g‘ini mutaxassislarini milliy MRMga muvofiq statistik ma‘lumotlarni avtomatik ravishda yig‘ish, saqlash va qayta ishlashni ta‘minlash uchun DevInfo ma‘lumotlar bazasi bilan ishlashga o‘qitish tashkil etildi.

Mazkur treningdan asosiy maqsad davlat organlari xizmatchilari salohiyatini mustahkamlash va mintaqaviy rejalashtirish va hayot darajasi ko‘rsatkichlarini kuzatib borish tizimini takomillashtirish bo‘ldi. DevInfo bepul programma bo‘lib, 2004- yilda BMT Taraqqiyot Guruhi (UNDG) tomonidan butun jahon bo‘ylab MRM yutuqlari va insoniyat taraqqiyoti ko‘rsatkichlari monitoringini o‘tkazish uchun maxsus ishlab chiqilgan. DevInfo ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash hamda davlat organlari, BMT agentliklari va rivojlanish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar o‘rtasida almashinish uchun noyob va yagona vosita hisoblanadi. Ma‘lumotlar bazasi taqdimotlar va hisobotlar uchun jadvallar, grafika va xaritalar tuzish imkoniyatni beradi hamda xalqaro statistika andozalariga mos keladi. Uch kunlik kurs davomida qatnashchilar ma‘lumotlarni qidirish va va ularni tahlil qilish, jadvallar, grafikalar va xaritalar bilan ishlash usullari bilan tanishib, ma‘lumotlar bazasini yaratish va boshqarish yo‘llarini o‘rgandilar. Ta‘kidlash lozimki, ushbu tashabbusning mustahkam bo‘lishini ta‘minlash uchun BMT Hamkorlik Dasturi Qoraqalpog‘iston Iqtisodiyot vazirligiga DevInfo ma‘lumotlar bazasi bilan ta‘minlangan kompyuterlarni taqdim etib, keyingi ikki yil davomida DevInfo dan foydalanish monitoringini o‘tkazib Qoraqalpog‘iston bo‘yicha ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishga yordam boradi.

Dasturdan ko‘zlangan asosiy maqsad Qoraqalpog‘iston Respublikasi rivoji uchun malakali mutaxassislar yetkazish va ularning bilim va ko‘nikmalarini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yangilab borish, aholining barcha qatlamlarini

nafaqat moddiy va ma'naviy balki, ijtimoiy-huquqiy tarafdin himoyalashni nazarda tutgan. Jahon tajribasidan voqif bo'lish va o'z mentalitetimizga, manaviy hayotimizga mos kelivchi dasturlarni hayotimizga joriy etish belgilangan.

01/04/2015

Qoraqalpog'istonning qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslarini tejash texnologiyalarini joriy etish

Qoraqalpog'iston Respublikasida ekin maydonlarini lazer nivelirida tekislash texnologiyasini namoyish qilish va joriy etish bo'yicha trening mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Treninglar ikkita bosqichda tashkil etildi – lazer niveliri yordamida yerlarni tekislash bo'yicha nazariy ma'ruza va maxsus uskunaning dalada amaliy ishlatilishi. Mazkur trening Orol dengizi bilan bog'liq atrof-muhit inqirozi oqibatida eng ko'p azob chekkan hududlar, ya'ni Konliko'l, Shumanay va Mo'ynoq tumanlaridan jami 78 ta fermerni qamrab oldi. Ushbu trening mashg'ulotlari BMTning "Orol dengizi fojeasi natijasida zarar ko'rgan aholi turmush tarzini yaxshilash" deb nomlangan Qo'shma dasturi doirasida tashkil etildi. ³⁵Mazkur Dastur O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan BMTning beshta agentligi, jumladan BMT Taraqqiyot Dasturi UNDP, UNESCO, UNESCO, WHO va BMTning Ko'ngillilar tashkiloti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi bilan hamkorlikda hamda BMTning Inson xavfsizligi bo'yicha maqsadli jamg'armasining homiyligida amalga oshirilmoqda. Qoraqalpog'istonda lazer niveliri yordamida ekin yerlarini tekislash texnologiyasini joriy etish bo'yicha tashabbus Global ekologik jamg'armaning Kichik grantlar dasturi, Xorazm Agromaslahat Markazi (KRASS) va Qoraqalpog'iston Respublikasining Fermerlar kengashi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

³⁵ <http://www/Tashkent.unesco.org>

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib deyarli butunlay ekin yerlarini sug'orish orqali amalga oshiriladigan dehqonchilik texnologiyasiga bog'liq. KRASS ekspertlari ta'kidlashicha qishloq xo'jaligi mahsulotining 90% dan ortiq'i sug'orish orqali amalga oshiriladigan dehqonchilik usulida ishlab chiqariladi. Mazkur holat qishloq xo'jaligida suv resurslari nihoyatda katta ahamiyatga egaligidan dalolat berib ularning tanqisligi nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga, balki mamlakatning butun iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoning dolzarbligi aynan Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida yaqqol ko'rinadi chunki bu yerda Orol dengizi atrofida yuzaga kelgan inqiroz va nihoyatda kuchli tuproq sho'rlanishi oqibatida keyingi yillarda qishloq xo'jaligi maydonlarini sug'orish uchun suv resurslarining yetishmovchiligi nihoyatda qattiq sezilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Fermerlar kengashining ma'lumotlariga ko'ra qishloq xo'jaligi maydonlarining sug'orish suvi bilan ta'minlanganligi darajasi haqiqiy talab hajmidan atigi 30-40% ni tashkil etadi. Bunday vaziyat qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazib fermer va dehqonlarning daromadi qisqarishiga sabab bo'lmoqda va buning oqibatida qishloq aholisining iqtisodiy xavfsizligiga va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim bilan bog'liq sabablardan tashqari, suv resurslari tanqisligiga fermer va dehqonlar tomonidan sug'orish suvi samarasiz ishlatilishi sabab bo'lmoqda, chunki fermer va dehqonlar hanuz qishloq xo'jaligi ekinlarini eskirgan sug'orish texnologiyalar va usullar yordamida yetishtirishni davom etyapti. Shu sababli hozirda samarador, suvni tajaydigan texnologiyalarga ehtiyoj paydo bo'lgan.

Bunday tejamkor texnologiyalardan biri qishloq xo'jaligi yerlarini lazer niveliri yordamida tekislash texnologiyasidir. KRASS ekspertlarining ta'kidlashicha lazer yordamida yerni tekislash usuli maxsus lazer jihozli qurilmada amalga oshirilib sug'orish suvini 25% gacha tejashga imkon beradi. "Lazer

nivelirida tekislangan dalalardagi yer maydonlari yuzasi bir tekis bo`lib, baland-pasliklar yo`qligi va silliqligi bilan farq qiladi. Natijada suv bir xil va tekis taqsimlanib, ekin maydonining tuprog`i butunlay, bir xilda namlanadi hamda ekinlar teng yetishadi. Suv bir tekis, teng taqsimlanishi uni tejashga yordam beradi”. Mazkur texnologiyaning samaradorligi Global ekologik jamg`armaning Kichik grantlar dasturi va KRASS ekspertlari tomonidan Xorazm viloyatida namoyish etilib Xorazm viloyati Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU)ga qarashli ikkita ko`rgazmali dalada ekin yerlarini lazer nivelirida tekislash usulining ko`rgazmali ravishda joriy etilishi natijasida suvni 20% dan to 25% gacha tejashga, hosildorlikni esa 5% dan to 10% gacha oshirishga erishildi. Ushbu usulning muvaffaqiyatli amalga tadbiiq etilishi tajribasini inobatga olgan holda, BMTning Qo`shma dasturi tomonidan KRASS bilan hamkorlikda loyihaga kiritilgan tumanlardan 78 ta fermerni qamrab olgan nazariy va amaliy trening mashg`ulotlarini dala sharoitida o`tkazdi.

BMT doirasidagi ko`plab hayriyaga asoslangan amaliy ishlarning ko`pchiligi aynan Qoraqalpog`iston Respublikasida o`tkazilishidan asosiy maqsad hudud ekologiyasining yomonligi va buning aholi so`lig`iga salbiy tasir ko`rsatayotganligi asos qilib olingan. Qishloq xo`jaligidagi yangi texnologiyalarning yo`lga qo`yilish, bu orqali esa aholining oziq-ovqat bilan taminlaganlik darajasini yuqori ko`rsatkichlarga olib chiqish ko`zlangan. Fuqarolar hayotini ijobiy tarafga o`zgartirish va hudud sharoitini inobatga olgan holda qishloq xo`jaligini isloh qilish amaliy ishlardagi natijalar tahlilida ko`rinmoqda.

III bob xulosasi.

Yuqorida aytib o'tilgan misollardan ko'rinib turibdiki YUNESKO o'tgan yillar davomida sog'liqni saqlash, ta'lim fan va ma'daniyat, sport kabi sohalar rivoji uchun turli miqdordagi pul mablag'larini ajratish orqali yaqindan yordam bergan. Bu kabi misollarni juda uzoq davom ettirish mumkin. YUNESKO va O'zbekiston aloqalarining kundan- kunga rivoj topib borayotganligini bu kabi misollar orqali aniq ko'rishimiz mumkin.

Sohalardagi rivojlanish bevosita YUNESKONing ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlashi bilan chambarchas bog'liqdir. Axborotlarni ommaga taqdim etishda tashkilotning axborot kommunikatsiya bo'limi, nafaqat tezlik balki qisqa ifodalash yo'lini tanlagan. Amaliy ishlar tashkilot saytida o'zbek, rus, ingliz tillarida uzliksiz ravishda berib boriladi. Jurnalistik yondoshuv aynan xalqaro tashkilot faoliyatidagi axborot bilan ishlashda holis, axborotni boricha berish uslubida ko'zga tashlanadi. Faktlarning aniq realikka asoslanganligi esa axborotning ishonchliligini oshirgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, YUNESKO tashkiloti O'zbekiston jamiyati taraqqiyotiga o'z hissasini salmoqli ravishda qo'shib kelmoqda. Bu ko'rsatkich ikki va teng huquqli hamkorlik asosida kun sayin rivojlanib bormoqda.

XULOSA.

“O‘zbekistonda inson huquqlarini taminlashda YUNESKOning tutgan o‘rni va roli” (axborot kommunikatsiya bo‘limi faoliyati misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

- Birinchidan, Mamlakatning jahon iqtisodiy taraqqiyoti jarayoniga qo‘shilishi milliy manfaatning muhim ustuvorligiga aylanadi, chunki globallashtirish jarayonida deyarli absolyut qonuniyat bo‘lib, hech qaysi mamlakat jahon iqtisodiyotiga qo‘shilmay, jiddiy iqtisodiy o‘shishga va aholi farovonligini ko‘tarishga erisha olmaydi. Bunda xalqaro munosabatlar sohasining o‘rni beqiyosdir.

- Ikkinchidan, Bugungi global va hududiy xalqaro tashkilotlarning inson huquqlarini muhofaza qilish huquqlari nihoyatda kichik. Bugungi qabul qilingan Deklaratsiyalar yuridikdan ko‘ra ko‘proq falsafiy maslahat beruvchi xarakterga ega. Umumislomiy inson huquqlari deklaratsiyasi hujjat sifatida qabul qilinmaydi, zero, ular davlatlar tomonidan imzolanganidan so‘ng, xalqaro hamkorlik maydonida o‘z amaliy o‘rnini topishi kerak. BMT faktlari, Deklaratsiyadan farqli o‘laroq, har bir imzolangan va ratifikatsiya qilgan davlatlarning majburiyatiga kirdi. Biroq bunga BMT a'zolarining yarmidan kamrog‘i qo‘shilgan.

Uchunchidan, Dunyoning ko‘plab mamlakatlari O‘zbekiston Respublikasini xalqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida tan oldi. Mamlakatimizning bir qator xalqaro tashkilotlarga a'zo bo‘lib kirishi, ular bilan "sharikchilik va hamkorlik", "o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish" bitimlarini imzolashi shular jumlasidandir.

- Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar jahon tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan tahdidlarga barham berishda davlatlar sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirib boruvchi eng samarali vositalarga aylangan. Xalqaro YUNESKO tashkilotining faoliyati bu borada mustahkam asosga egadir.

To'rtinchidan, YUNESKO tomonidan xotin-qizlar huquqlari bo'yicha ishlab chiqilayotgan xalqaro standartlar ijobiy rol o'ynashda davom etmoqda: xalqaro bitimlarning ratifikatsiya qilinishi milliy qonunchiliklarni jahon standartlariga moslashtirdi. Bunday amaliyotsiz global darajada tenglik madaniyati g'oyalarini shakllantirish va amalga oshirishning iloji yo'q edi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi imkoniyatlarni barobarlashtirish borasidagi zamonaviy yo'nalish so'zsiz shu jarayonning ifodasidir.

- Beshinchidan, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi faoliyati Yurtimizda faoliyati davomida qator sohalar rivoji uchun malum dasturlar asosida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Uning asosiy maqsadi esa vazirlik va idoralar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini va o'zaro qo'llab-quvvatlashni taminlaydi hamda komissiyaning turli xil milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlari bilan faoliyatini movofiqlashtirishga yordam beradi;

- Oltinchidan, sohalardagi rivojlanish bevosita YUNESKOning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlashi bilan chambarchas bog'liqdir. Axborotlarni ommaga taqdim etishda tashkilotning axborot kommunikatsiya bo'limi, nafaqat tezlik balki qisqa ifodalash yo'lini tanlagan.

- Mavzuni o'rganish borasida quyidagi takliflarni berish mumkin:

- YUNESKO tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi va ma'lum ta'lim muassasalari faoliyati doirasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, professor o'qituvchilar va talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llab ko'rish imkoniyatini yaratish lozim;

- Axborot kommunikatsiya bo'limi faoliyatiga to'xtalsak uning rivoji uchun ma'lum ishlarni amlaga oshirish lozim. Jumladan, yetakchi jurnalist kadrlarning jalb etilishi, faqatgina axborot tarqatish emas balki boshqa OAV bilan hamkorlikni ham yo'lga qo'yish lozim.

- Ma'lum bir tele yoki radio kanal, bosma nashrda aynan tashkilot faoliyatini yoritishga mo'ljalangan rukn, dasturni doimiy ravishda ommaga taqdim etib borishni yo'lga qo'yish kerak;

- Axborotlarni tashkilot saytida ingliz, rus, o'zbek tillarida uzatayotganligiga guvoh bo'lamiz. Yani, faqat bu tillardagina emas balki xitoy, arab, nemis va yana boshqa tillarda taqdim etish imkoniyatini yaratish lozim. Bunda esa tilshunos va tarjimonlarni jalb etish lozim;

- Jurnalistika sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun tashkilot faoliyati xususan uning axborot bilan ishlash prinsiplari yoritilgan darslik o'quv qo'llanmalarni chop etish kerak;

- Tashkilot faoliyatida ma'lum darajada hayriya ishlarini ham yo'lga qo'yish lozim. Rivojlanishga muhtoj bo'lgan ma'lum soha yoki muassasa misolida uni amalga oshirish mumkin.

- Mazkur amaliy tavsiyalar chambarchas aloqadorlikda mavzu yuzasidan bugun amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy vazifalarni belgilaydi. Bunda ilmiy tashkilotlar, oily ta'lim muassasalari, olimlar, mutaxassislar hamda, jamoat tashkilotlarining amaliy hamkorligini taminlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, shu yo'l bilan soha rivojini yanada yuqoriga olib chiqishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Siyosiy metodologik adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqorolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir. T.: O'zbekiston, 2007.
2. Karimov I. A. Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009.
3. Karimov I. A. Inson manfaatlarini taminlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish-ustuvor vazifamizdir. T.: O'zbekiston, 2007
4. Karimov I. A. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.
5. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: O'zbekiston, 2005
6. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I. A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 2007.
8. Karimov I. A. Yuksak manaviyat- yengilmas kuch. T.: Manaviyat, 2008.

Normativ xuquqiy xujjatlar:

9. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2010.
10. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. Toshkent, O'zbekiston, 2013.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

11. M.A. Rashidov "O'zbekiston Respublikasining YUNESKO bilan hamkorligining xalqaro-huquqiy masalalari" T; 2005.
12. Saidov A.X. Xalqaro huquq subektlari. T; 2000.
13. Saidov A.X. Xalqaro huquq. Darslik.- T; Adolat.2001.
14. «Международное конфликты современности» (отв.ред. В.И.Гайтман О М., 2004
15. Афанасьев «Системность общества» М., 2004
16. Бурлацкий «О системном подходе к исследований внешней политики //М., 2007
17. Морозов Г.И. «Международный организации». Некоторые вопросы и теории. М., 2005
18. Дипломатический словарь. Том 1, М., 2007
19. И.Курдюков «Система международно-правового регулирования». М., 2009.
20. Исраэлян В.Л. Дипломат лицом к лицу. М. 2003
21. Международное отношения политика и личность М., 2009.
22. Международное право. М., 2010.
23. Международное право. Учебник. М., 2005
24. Организация Объединённых наций. М., 2007
25. Р.Дж.Фельтхэм Настольная книга дипломата. Пер. с англ. М., 2000
26. Система, структура и процесс развития современное международное отношений. (отв.ред. В.И.Гайтман) М., Наука, 2005
27. Современное международное отношения. Учебник. М., 2000

28. Сэм Бергер. О политико-экономической интеграции будущего (перевод ЕКФ 104-3.31.97)

Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

29. Mo'minov A.P YUNESKOning norma ijodkorlik faoliyati J. Huquq-Prava-Law.-T; 2000.

30. Mo'minov A.P YUNESKO kafedralari va Tinchlik madaniyati.//J. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari.T;2000. B.60-65

31. Yearbook of the International Law Comission 1950. Vol.II. N.Y.1951.p.223

32. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi.1994-2009. T; 2012.

33. UNESCO and Human Rights Janusz SYMONIDES and Vladimir VOLODIN Parij; 1996 by UNO.

34. The Programme and Budget of the Organisation (document C/5) P; 2012. by the UNESCO General Conference.

Internet saytlari:

35. <http://www.unesco.org/shs>

36. <http://www.unesco.org/general/eng/about/history/members/shtml>.

37. <http://www/Tashkent.unesco.org>

38. <http://www/unfapa.uz>

39. <http://www/ochaonline.un.org>

40. <http://www/unv.uzbekistan.html>

41. <http://www/unv//what-we-do.html>

Ilovalar

YUNESKOning bosh direktorlari

1-ilova

Ismi va familiyasi	Tug'ilgan yili	Qaysi mamlakatdan	Boshqargan yillari
Julian Xaksley	1887-1975	Buyuk Britaniya	1946-1948
Jeyms Torres Bole	1902-1974	Meksika	1948-1952
Jon Teylor, v. b	1906-	AQSH	1952-1953
Lyuter Evans	1902-1981	AQSH	1953-1958
Vittoriono Veroneze	1910-1986	Italiya	1958-1961
Rene Max	1905-1975	Fransiya	1961-1974
Amadu-Maxtar M'Bou	1921-	Senegal	1974-1987
Federiko Mayor	1934 -	Ispaniya	1987-1999
Koichiro Matsura	1937-	Yaponiya	1999-
Irina Bakova			

2-ilova

O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan UNESKOning xalqaro hujjatlari ro'yxati

(2003 yil 1-yanvargacha bo'lgan ma'lumot)

1. 1966-yil 14-noyabrdagi Xalqaro madaniy hamkorlik prinsiplari deklaratsiyasi.
2. 1960-yil 10-noyabrdagi Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya.
3. 1989-yil 10-noyabrdagi Texnikaviy va hunar ta'limi to'g'risidagi konvensiya.
4. 1972-yil 16-noyabrdagi Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya.
5. 1954-yil 14-maydagi qurolli mojaro chiqqan holda madaniy boyliklarni himoya qilinishi to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi..
6. 1970-yil 14-noyabrdagi Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va ularga egalik huquqini o'zgaga berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi konvensiyasi.
7. 1971-yil 2-fevraldagi Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan, asosan suvda suzadigan qushlar uchun yashash joylari hisoblanadigan suvlar va botqoqlar to'g'risida konvensiya("Ramsar konvensiya"si).
8. 1995-yil 16-noyabrdagi Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi.

3-ilova

UNESCO Ustavini birinchi bo'lib ratifikatsiya qilgan davlatlar

1. Avstraliya
2. Amerika qo'shma Shtatlari
3. Byuk Britaniya
4. Braziliya
5. Gretsiya
6. Daniya
7. Dominikan Respublikasi
8. Janubiy Afrika Ittifoqi

9. Kanada
10. Livan
11. Meksika
12. Misr
13. Norvegiya
14. Xitoy
15. Fransiya
16. Saudiya Arabistoni
17. Turkiya
18. Chexoslavakiya
19. Yangi Zelandiya
20. Hindiston

4-ilova

A'zo davlatlar sonining o'zgarib borishi³⁶

Yillar	Soni
1950	59
1955	74
1960	99
1965	120
1970	125
1975	136
1980	153
1985	153
1990	159
1995	184
2003	186
2013	188

³⁶ <http://www.unesco.org/general/eng/about/history/members/shtml>.